

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

XOLMETOVA SABOHAT ODILJANOVNA

5111100 – Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha

(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: UMUMTA'LIM MAKTABLARI 7-SINFIDA SHARQ ALLOMALARI
MUSIQA HAQIDA RISOLALARI BILAN TANISHTIRISH USHLARI


ILMIY RAHBAR:

KATTA O'QITUVCHI
BOLTAEV RUSTAM

Urganch-2015-yil

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

“UMUMTA'LIM MAKTABLARI 7-SINFIDA SHARQ ALLOMALARI MUSIC
HAQIDA RISOLALARI BILAN TANISHTIRISH USHLUBLARI”

BAJARUVCHI:  XOLMETOVA SABOHAT ODILJANOVNA

RAHBAR:  KATTA O'QITUVCHI BOLTAEV RUSTAM

URGANCH - 2015-YIL

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI


№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2014-yil. oktabr
2	Bitiruv-malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish.	2014- yil. dekabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2015-yil. yanvar
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish,	2015- yil. yanvar
5	Yig'ilgan materiallarni sistemalashtirish,	2015- yil. fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'rganish	2015- yil. fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2015- yil. mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2015- yil. mart
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2015- yil. aprel
10	Ishning xulosa qismini yozish	2015- yil. aprel
11	Adabiyotlar ro'yxatini yozish	2015- yil .aprel
12	Ishni rahbarga tahririyat uchun taqdim qilish	2015- yil. may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2015- yil. may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:



katta o'qituvchi Boltayev Rustam
Qurbanbaevich

Bajaruvchi talaba:



Xolmetova Sabohat Odiljanovna

2014 yil " 5 " Sentyabr

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2014 yil tasdiqlandi
(" 5.09 " 2 - sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:



katta o'qituvchi Nurmatova M. A

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZALARI

Talaba: Xolmetova Sabohat Odiljanovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari

Bitiruv malakaviy ish hajmi: kirish, ikki bob, besh qism, xulosa va foydalangan adabiyotlardan iborat.

Tushuntirish qismi: 9 sahifadan iborat

Ilovalar soni: 7 sahifadan iborat

Mavzuning dolzarbligi: Sharq xalklarining musiqa merosida maqomlar juda katta o'rin tutadi. Shu sababli maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini ko'pdan beri o'ziga jalb etib,. So'nggi davrlarda ham ko'pgina musiqashunos olimlar maqomlar xaqida o'zlarining fikrlarini bildirib kelganlar. Sharq allomalari yaratgan risolalari bilan umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilari 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Sharq xalqlari musiqasining asosini maqomlar tashkil etadi. Shu sababli maqomlarni Sharq allomalari yozib qoldirgan risolalarga tayangan xolda atroflicha o'rganilishi musiqa madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga ega. Abu Nasr Forobiyning "Kitobul musiqiy al-kabir" asarida bunday izlanishlar o'zining ilk bor yechimini topgan edi va Sharq nota yozuvining yaratilishida zamin bo'ldi.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyorgarligining tavsifi Xolmetova Sabohat Odiljanovnaning umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi yaxshi. Mavzuga doir adabiyotlardan o'rinli foydalangani bitiruv malakaviy ishida o'z aksini topgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Ishda bitiruvchi ilmiy etika talablariga rioya etganki, bu uning ilmga jiddiy e'tibor bilan qaraganidan dalolat beradi. Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati yaxshi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati yuqori. Xolmetova Sabohat tirishqoq, o'ziga talabchan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, bilim, malaka va

ko'nikmalarini doimo oshirib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodlari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Ish bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga to'la javob berdi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

Boltaev R.Q.

2015 yil "16" iyun.



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT

FAKULTETI MUSIQIY TA'LIM KAFEDRASI

5111100 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi

Xolmetova Sabohat Odiljanovnaning

Bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Malakaviy ish mavzusi: “Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari”

Malakaviy ishning hajmi 12054 so'zdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 9 sahifadan iborat

b) ilovalar soni: 7 sahifadan iborat

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada Sharq allomalarining risolalari, o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Sharq xalklarining musiqa merosida maqomlar juda katta o'rin tutadi. Shu sababli maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini ko'pdan beri o'ziga jalb etib,. So'nggi davrlarda ham ko'pgina musiqashunos olimlar maqomlar xaqida o'zlarining fikrlarini bildirib kelganlar. Sharq allomalari yaratgan risolalari bilan umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilari 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi o'rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob'ekti va predmeti,

ilmiy yangiligi kabi masalalar o'z echimini topgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar: Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o'rinli foydalanilgan. Asosan, 2000 yildan keyingi ilmiy-nazariy badiiy adabiyotlar tadqiqot ishining asosini tashkil etgan. Ishda keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan internet ma'lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta'lim metodiari o'quv metodlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta'lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda umumta'lim maktablarida interaktiv metodlarni, pedagogik va innavatsion texnikalogiyalardan foydalanib texnik vositalar yoradamida dars o'tilsa, ish samaradorligi yanada oshardi.



Sapaev B.

Urganch san'at kolleji o'zbek xalq cholg'u
asboblari bo'limi o'qituvchisi

2015 yil "16" iyun

**BITIRUV MALAKAVIY ISHNI DAK TOMONIDAN BAHOLASH
MEZONLARI**

№	Baholanadigan bo‘limlar	Eng yuqori ko‘rsatkich ball hisobida
1	BMI ning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35
3	“Xulosa” qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10
8	BMI mavzusi bo‘yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma’ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10

Eslatma: har bir kafedraning xususiyatlari e’tiborga olingan holda baholash mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq.

Urganch Davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti musiqa ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Xolmetova Sabohat Odiljanovnaning "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "19" 2015 yil "iyun" dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	<u>6</u>
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos xolda bajarilishi	35	<u>30</u>
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	<u>6</u>
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	<u>6</u>
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	<u>6</u>
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	<u>4</u>
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	<u>6</u>
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy-nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (axborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	<u>5</u>
Jami:		<u>100</u>	<u>69</u>

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 69 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilanish va "o'rta" deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2015 yil "19"

"iyun"

Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası
Bitiruv malakaviy ish 45 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi Xolmetova Sabohat Odiljanovna
Bitiruv malakaviy ishning mavzusi "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq
allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari"

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi-sharifi Boltaev Rustam Qurbanbaevich

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2015 yil "28" may da o'tkazilgan majlisi
qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch san'at kolleji o'zbek xalq cholg'u
asboblari bo'limi o'qituvchisi Sapaev B.

Kafedra mudiri:  katta o'qituvchi Nurmatova M. A.

Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish bo'yicha
tavsiyasiga roziman.

Fakultet dekani:  dots. Ishmurotov M.J.

"Tasdiqlayman"
fakultet dekani K.S. Niyazov
"13" dekabr 2014 y.

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI 5111100 – MUSIQA TA'LIMI YO'NALISHI.
BAKALAVR BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talabasi Xolmetova Sabohat Odiljanovna

1. Ishning mavzusi: "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari"

"13" dekabr 2014 yil universitet rektorining 28-T sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "25" may 2015 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati

- a) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008
- b) Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami) T.2002
- v) Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008
- g) Mamirov K. Uzlaksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi T.2009
- d) Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. Xorazm tanbur chizig'i T. 2010
- e) Rajabov I. Maqom asoslari T.1992

4. Ishning maqsadi Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari

5. Chizma materiallar ro'yxati: yo'q

6. Maslahatchilar: yo'q

Bo'limlar	Ilmiy rahbar (Maslahatchi) F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
I-bob Sharq allomalari musiqa haqida risolalarining tarixiy ahamiyati	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	23.10.2014	30.10.2014
1.1. O'rta asr Sharq allomalarining musiqa haqida risolalari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.11.2014	26.11.2014
1.2. XIII - XIV asrda Sharq musiqa ilmining rivojlanishi	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	03.12.2014	24.12.2014
II bob. Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	05.01.2015	24.01.2015
2.1. Umumta'lim maktablari 7-sinfida XIV – XV asr Sharq allomalari risolalari bilan tanishtirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	21.01.2015	02.02.2015
2.2. Sharq allomalarining musiqiy risolalarida bitilgan bastakorlik san'ati va kuy shakllari bilan tanishtirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	28.01.2015	23.02.2015
2.3. Pedagogik texnologiyalarni qo'llab Sharq allomalar risolalari musiqa tushunchasini yoritish usullari	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	07.03.2015	29.03.2015
Xulosa, kirish	Boltayev Rustam Qurbonboyevich	04.04.2015	03.05.2015

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Urganch san'at kolleji o'zbek xalq cholg'u asboblari bo'limi o'qituvchisi Sapaev B.

7. Ilmiy rahbar:



Boltayev Rustam Qurbonboyevich

BMI bajaruvchi talaba:



Xolmetova Sabohat Odiljanovna

Kafedra mudiri:



Nurmatova Maya Abdullaevna

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH
BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

REJASI:

Talabasi: Xolmetova Sabohat Odiljanovna

Universitet rektorining “___” - sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Boltaev Rustam Qurbanbaevich bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: kirish, ikki bob, besh qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008, DTS va o'quv dasturi 6 maxsus son.T.1999, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami T., 2006, Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008, Mannopov S.O'zbek xalq musiqa madaniyati T.2004, Mamirov K. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi T.2009, Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. O'zbek notasi. I.2007, Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. Xorazm tanbur chizig'i T. 2010, Matyokubov O. Maqomot T.2004, Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir T. 1963, Rajabov I. Maqomlar T.2006, Rajabov I. Maqom asoslari T.1992, Solomonova T. O'zbek musiqasi tarixi T. 1981, Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005, Tursunov R. Bastakorlar ijodi T. 2008, Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi 1-qism T.1999, Yunusov R. O'zbek xalq musiqa ijodi 2-qism T.2000, Shashmaqom saboqlari (uchinchi to'plam) R.Boltaev. Xorazm maqomlarining parda va usul asoslari.

MUNDARIJA

Kirish.....	3-12
I-Bob Sharq allomalari musiqa haqida risolalarining tarixiy ahamiyati	
1.1. O'rta asr Sharq allomalarining musiqa haqida risolalari.....	12-17
1.2. XIII - XIV asrda Sharq musiqa ilmining rivojlanishi	18-23
II bob. Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari	
2.1. Umumta'lim maktablari 7-sinfida XIV – XV asr Sharq allomalari risolalari bilan tanishtirish.....	23-31
2.2. Sharq allomalarining musiqiy risolalarida bitilgan bastakorlik san'ati va kuy shakllari bilan tanishtirish	31-38
2.3. Pedagogik texnologiyalarni qo'llab Sharq allomalar risolalari musiqa tushunchasini yoritish usullari.....	38-53
Xulosa.....	54-56
Faydolanilgan adabiyotlar.....	57-58
Ilova.....	59-66

KIRISH

Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan Sharq allomalar risolalari va ularda bitilgan ma'lumotlar bugunki kunda ularni o'rganish, tahlil qilish juda kerakli masalalardan biri bo'lib qoldi. IX - XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar, allomalar risolalari va tarixiy-adabiy xarakterdagi manbalarning ko'plarida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Istiqlol yillari an'anaviy bastakorlik ijodi uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Endilikda davr tubdan yangilanib, musiqiy ijodga munosabat o'zgarib borayotir. Xususan, zamonaviy musiqiy asarlar yaratish masalasi atrofida fikr – mulohazalar mazkur ijodiy jarayonning eng qizg'in muhokama qilinayotgan mavzuiga aylanganini ko'rsatib turibdi.

Bastakorlik O'rta Osiyo xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan professional sozanda va xonandalarning musiqiy ijod san'atidir. Bu san'at har bir xalqning o'ziga xos musiqiy an'analari asosida vujudga kelib, uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqiy ijod sifatida shakllangan.

Qariyb 2000 yillik ko'xna tarixga ega bo'lgan ushbu sohada Barbod, Abu Nasr Farobiy, Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changi kabi ulkan siymolar ijod qildi.

Ular musiqa nazariyasi va bastakorlik sohasida juda katta boy meros qoldirdi. Biroq arab istelosi davrida musiqaga oid yozma manbalar kuydirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun ular yaratgan musiqiy asarlar bizgacha yetib kelmagan.

Lekin keyingi ming yillik tarixga oid yozma manbalar bizgacha yetib kelgan. O'rta asr musiqashunos olimlari musiqa nazariyasi va bastakorlik masalalari bo'yicha ko'proq Abu Nasr Farobiyning "Musiqaga oid katta kitob", "Musiqha haqida so'z", Abu Ali Ibn Sinoning "Musiqha ilmi haqida

risola”, “Kitobu ash-shifo” asarlarida musiqa ilmi va bastakorlik san'atiga berilgan ta'rifni asos qilib oladilar.

O'zbek xalqining donishmand shoiri va olimi Alisher Navoiy o'zining ”Xazoyin ul-maoniy”, “Xolati Pahlavon Muhammad”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida o'zidan oldin o'tgan buyuk musiqiy allomalarimizning musiqa ilmiy, bastakorlik an'alarini davom ettirib, boyitdi.

Musiqa ilmi XIII – XIV asrlarda yashab, ijod etgan olimlar – Safiuddin Urmaviy, Hoji Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiyy va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan

Sharq xalklarining musiqa merosida maqomlar juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan.

So'nggi davrlarda ham ko'pgina musiqashunos olimlar maqomlar xaqida o'zlarining fikrlarini bildirib kelganlar. Sharq allomalari yaratgan risolalari bilan umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilari 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Sharq xalqlari musiqasining asosini maqomlar tashkil etadi. Shu sababli maqomlarni Sharq allomalari yozib qoldirgan risolalarga tayangan xolda atroflicha o'rganilishi musiqa madaniyatimiz tarixida muhim ahamiyatga ega.

Maqomlarning nazariy ham amaliy tomonlari bor. Ularning nazariy jihatlari Sharq musiqasiga bag'ishlangan risolalarda o'z ifodasini topgan. O'zbek-tojik xalqlaridagi maqomlarning amaliy tomonlarini esa, ustoz sozanda va xonandadan shogirdga og'zaki o'tib, bizgacha etib kelgan maqomlar turkumidagi birdan-bir janr Shashmaqom ko'rinishida tasavvur etish mumkin.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an'alarimizga bo'lgan e'tibor, ularni

yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti tarixan asosan Og'zaki an'ana sharoitlarida rivojlanib kelgan. Ammo, Sharq musiqa nazariyasi masalalariga bag'ishlangan IX – XIII asr risolalarida musiqaning bir qator unsurlarini maxsus yozuvda belgilashga harakatlar amalga oshirilgan.

Abu Nasr Forobiyning “Kitobul musiqiy al-kabir” asarida bunday izlanishlar o'zining ilk bor yechimini topgan edi va Sharq nota yozuvining yaratilishida zamin bo'ldi (yozuvlar doira va maxsus jadval shakllariga tushirilgan bo'lib, asosiy tovush pog'onalari ud cholg'usi pardalarini aks ettiruvchi harflar yordamida belgilangan).

XIII asrda Safiuddin Urmaviy “tabulatura” (jadval) shaklidagi nota yozuvini kashf qilishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur yozuv tizimi ham ud cholg'usiga mo'ljallangan bo'lib, uning qator ijro xususiyatlarini aks ettira olgan. Bunday yozuv orqali o'z zamonida mashhur bo'lgan bir necha mumtoz maqom kuylari hujjatlashtirilgan (bu yozuvlar frantsuz sharqshunos olimi De Erlanje, keyinchalik taniqli o'zbek maqomshunos olimi Ishoq Rajabov tomonlaridan hozirgi zamon nota yozuviga ko'chirilib, batafsil ilmiy sharhlangan)¹.

XX asrda o'zbek mumtoz musiqasi namunalarini to'plash va yozib olish (zamonaviy ovro'pa nota yozuvida) ishlari rivoj oladi. Buxoro “Shashmaqomi” ilk bor rus kompozitori Viktor Uspenskiy tomonidan notaga olinib (1923), to'plam sifatida chop etildi; keyinchalik Boboqul. Fayzullaev, Shonazar Sohibov va Fazliddin Shahobovlar (Tojikiston, 1950-1961), Yunus Rajabiy (O'zbekiston, 1959) kabi ijrochi va bastakorlar tomonidan yozib olinib, nashr etildi.

“Xorazm maqomlari” turkumi Komil Xorazmiy (XIX asrning oxirida) ixtiro etgan “tanbur chizig'i” yozuvida (tabulatura nota yozuvi o'rta asrning XII-XIII asarlarida mavjud bo'lgan) kuy, usul va ijro asoslari qonunlashtirilib, qonun-qoidalarga bo'ysungan holda mukammal ijro etilishi Xorazmda yo'lga qo'yilgan (mazkur yozuvlar V. Belyaev, I. Akbarov tomonlaridan zamonaviy nota yozuviga ko'chirishgan; keyinchalik Ozod Bobonazarov, “O'zbek notasi”deb nomlangan

¹ Rajabov Ishoq. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963, 64-93 bet.

kitob mualliflari Otanazar Matyakubov, Rustam Boltaev va Xamidullo Aminovlarning ilmiy-ijodiy izlanishlar natijasida “tanbur chizig‘i” yozuvlari yangicha tasavvurga ega bo‘ldi)².

XX asrning 30-yillarida Xorazm maqomlari Elena Romanovskaya (1939), 50-yillardan boshlab Matniyoz Yusupov (1958) tomonidan yozib olinib, chop etiladi. Farg‘ona-Toshkent maqomlari Viktor Uspenskiy, Viktor Belyaev, Yunus Rajabiylar tomonidan yozib olindi.

Katta ashula, suvoralar, dostonlar ham ijrochilar, musiqashunoslar va o‘zbek bastakorlari tomonidan yozib olindi. Yozib olingan va nashr etilgan to‘plamlar orqali ilmiy-tadqiqot ishlari ham jadallashdi, shu bois XX asrning birinchi yarmida Rahmon Bekjon va Devonzoda, A. Fitrat, N. Mironov, V. Uspenskiy, V. Belyaev, E. Romanovskaya, I. Akbarovlarning mumtoz musiqa masalalariga bag‘ishlangan maqolalar va kitoblar yuzaga keldi.

XX asrning ikkinchi yarmidan bu ishlar yanada rivojlanib, I. Rajabov, Yu. Rajabiy, F. Karomatov, T. Vizgo, T. G‘ofurbekov, O. Matyoqubov, R. Abdullaev, A. Jumaev, A. Nazarov, R. Yunusov, O. Ibrohimov, S. Begmatov kabi musiqashunos olimlar ilmiy ishlarida o‘z aksini topdi. XX asrda o‘zbek mumtoz musiqasini to‘plash, yozib olish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishda kompozitor va bastakorlar, musiqashunos olimlarning xizmatilari katta bo‘lgan.

Mavzuning dolzarbligi: Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma’naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada Sharq allomalarining risolalari, o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma’naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sharq xalklarining musiqa merosida maqomlar juda katta o‘rin tutadi. Shu sababli maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini ko‘pdan beri o‘ziga jalb etib,. So‘nggi davrlarda ham ko‘pgina

² “Otanazar Matyakubov, Rustam Boltaev va Xamidullo Aminov. O‘zbek notasi T.,2007

musiqashunos olimlar maqomlar xaqida o'zlarining fikrlarini bildirib kelganlar. Sharq allomalari yaratgan risolalari bilan umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilari 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining turli interfaol metodlar ilg'or pedagogik texnologiyalarida ayniqsa kompyuter texnologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq vaqti-vaqti bilan ijrodagi kuy va qo'shiq namunalarini yozuv tasmasi yoki audio, video yozuvlar orqali tinglash tavsiya etiladi. Musiqa ta'limida qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini o'lchash mezonlari soha bo'yicha ta'limni davlat standartlari va o'quv dasturlarini mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

Bunda asosiy musiqiy faoliyat turlari mavzuga asoslanib, Sharq allomalari Farobiy, Ibn Sino, A. Navoiy kabi allomalar bilan tanishish, ijrochilar ansambli, orkestr, xalq va malakali sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish, ifodaviy vosita va usullarni to'g'ri anglash, amaliy musiqiy-ijodiy faoliyatda ularni qo'llash borasidagi bilim va malakalar bilan baholanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shuni aytish kerakki, O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi hali yetarli o'rganilmagan. Bu masalani, shu jumladan maqomlarning taraqqiyot yo'lini izchil yoritib beradigan yaxlit asarlar yaratilmagan. Umuman musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to'plab, O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir.

Shu sababli hozircha X-XIX asrlarda musiqa manbalaridagi mavjud ma'lumotlarni qisqacha eslatib o'tish bilan kifoyalanamiz. Musiqa risolalarining katta qismi maqomlarning nazariy asoslarini sharhlab beradi.

Oliy o'quv dargohlari professor-o'qituvchilari o'zbek tilida Sharq allomalari musiqa haqidagi risolalarni o'quvchilarga tanishtirish, unda yoritilgan mumtoz musiqa xaqida tushincha berish. oliy o'quv yurtlari maxsus musiqa ta'lim

muassasalari shuningdek, umumta'lim maktablari uchun darsliklarda yozganlar. Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami, Mannopov S. O'zbek xalq musiqa madaniyati, Mamirov K. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi, Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. O'zbek notasi., Rajabov I. Maqomlar, Solomonova T. O'zbek musiqasi tarixi, Yunusov R. O'zbek musiqa ijodi, "Musiqani o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar", Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar.

Uzluksiz ta'lim yo'nalishlari uchun Mamirov K.A. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa fanlarini o'qitish masalasi, Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami), Abdullaev R.A. O'zbek mumtoz musiqasi, Oqilxon Ibraximov, Jamil Sidirov Musiqa 7-sinf uchun darslik, S. Bekmatov va boshqalar muallifligida Musiqa 6-sinf uchun darsliklarida Sharq allomalari ijodi, hayoti hamda musiqa xaqidagi risolalari va asarlar taxlili haqida yozilgan.

Sanalgan ushbu holatlar bitiruv malakaviy ish mavzusini: "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari" deb tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqot ob'ekti: Sharq allomalari musiqa haqidagi risolalarni o'quvchilarga tanishtirish, unda yoritilgan mumtoz musiqa xaqida tushincha berish.

Tadqiqot predmeti: Umumta'lim maktablari 7-sinfida
Sharq allomalari musiqa haqida
risolalari bilan tanishtirish uslublari

Tadqiqot maqsadi: Sharq allomalari yaratgan risolalari
bilan umumta'lim maktabi 7-sinf
o'quvchilar 3-chorakda tanishish va buning
asosida umumiy tushunchaga ega bo'lish

Tadqiqot vazifasi: 1. Sharq allomalari musiqa haqida
risolalarining tarixiy ahamiyati
2. IX-X asr Sharq allomalari Abu Nasr
Forobiy, Abu Ali ibn Sino
musiqa haqida risolalari

3. Sharq musiqa ilmining rivojlanishida
Abulqodir Maragʻiy, Mahmud Sheroziy
risolalarining ahamiyati
4. Umumtaʼlim maktablari 7-sinfida
Sharq allomalari musiqa haqida
risolalari bilan tanishtirish uslublari
5. Umumtaʼlim maktablari 7-sinfida
XI – XV asrlar musiqa madaniyatini
oʻrganish
6. Umumtaʼlim maktablari 7-sinfida Sharq
allomalarining musiqiy nazariy merosini
tanishtirish uslublari

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:

Sharq allomalari risolalarida va musiqa nazariyasini sharxlab beruvchi koʻpgina yozma manbalarda maqomlar tushunchasini, xos belgilarini, ularning baʼzi amaliy tomonlarini anglashga yordam beradigan qimmatli maʼlumotlar uchraydi. Bu manbalar bilan tanishish va oʻrganish shuni koʻrsatadiki, maqomlarning juda qadimiy tarixi boʻlsa-da, Shashmaqom Oʻrta Osiyoda yashab kelgan maqom turkumlarining eng soʻnggi shaklidir

Tadqiqotda qoʻllanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

1. Analiz va sintez
2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni oʻrganish
(Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari toʻplami T., 2006, Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008, Mannopov S.Oʻzbek xalq musiqa madaniyati T.2004, Mamirov K. Uzluksiz taʼlim tizimida musiqa fanlarini oʻqitish masalasi T.2009, Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. Oʻzbek notasi. I.2007, Rajabov I. Maqomlar T., 2006, Solomonova T. Oʻzbek musiqasi tarixi T., 1981, Yunusov R. Oʻzbek musiqa ijodi T., 1999,

“Musiqani o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar”, mavzuga taaluqli adabiyot va manbalarni o‘rganish)

3. Ma’lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash

4. Pedagogik kuzatish

Analiz va sintez uslubidan ilmiy materialni tanlash, o‘rganish, tadqiqot mavzusiga doir fikr va g‘oyalarni ajratish, tadqiqot xulosalarini chiqarishda foydalaniladi.

Tadqiqot mavzusiga doir asosiy ilmiy materiallar, g‘oya va fikrlar mazmuni musiqiy pedagogik mahorat asoslari, pedagogik texnologiya, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish fanlarga oid maxsus adabiyotlarda o‘z aksini topgan.

Umumlashtirish va taqqoslash uslubi yordamida har bir o‘rganilayotgan muammo yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Pedagogik kuzatish uslubi vositasida umumta’lim maktabida pedagogik texnologiyasidan foydalanishning ilmiy - metodik asoslari o‘rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:

- Umumta’lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari, musiqiy ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy asoslanishida;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg‘ulotlari jarayonida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublarning pedagogik-psixologik jihatlarini tadbiq etishda;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg‘ulotlari Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirishning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilganligida;
- Umumta’lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg‘ulotlari Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirishning innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilganligida;

- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirishning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonini ishlab chiqishda;

- Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda, ta'limda vaqt tejash hisobiga an'anaviy usulga nisbatan ko'proq material o'rgatilishi va mazmunining chuqurlashtirilishida;

- Umumta'lim maktabi 7-sinfi musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirishning metodikasini ishlab chiqilishi va metodik tavsiyalar berilishida.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar tomonidan atroflicha o'rganilib kelinganligi asoslab berildi;

2. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati mashg'ulotlari jarayonida Sharq mumtoz musiqasining nazariy masalalari Forobiy, Ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog'iy, Abdurahmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvesh Ali Changiy kabi ulkan olimlar asarlari musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta'lim masalalari hamda ular negizida kuy, lad va usul tuzilmalarining tarkib topish qonun-qoidalari batafsil yoritilib, pedagogik texnologiyasidan foydalanishning metodik ta'minoti yaratildi;

3. Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi:

Kirish, 2 bob, xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Ish 54 bet (asosiy matn – 50 bet, 33 ta manba va ilova)dan tashkil topgan.

Kirish qismida tadqiqot qilinayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab berilgan, izlanish maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifa va metodlari ko'rsatilgan, ilmiy farazi qo'yilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy qimmati ichib berilgan.

Birinchi bob "Sharq allomalari musiqa haqida risolalarining tarixiy ahamiyati" mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, O'rta asr Sharq allomalarining musiqa haqida risolalari jihatlari va tamoyillari asoslab berilgan.

Ikkinchi bob "Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari" mavzusi pedagogik texnologiyasidan foydalanib o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari, pedagogik texnologiyasidan foydalanish jarayoni yoritilgan.

Xulosada olib borilgan tadqiqotning asosiy yakuniy fikr va umumlashmalari bayon qilingan.

I – bob Sharq allomalari musiqa haqida risolalarining tarixiy ahamiyati

1.1. O'rta asr Sharq allomalarining musiqa haqida risolalari

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan O'rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo'shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga ega. O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeolog olimlar tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo'lib xizmat etadi hamda bu xalqlarning qadimdan boshlab yuksak madaniyat egalari bo'lganligini tasdiqlaydi. Lekin arab istilosi davrida (VII – IX asrlar) boshqa madaniy yodgorliklar qatorida musiqaga doir yozma manbalar ham kuydirilib, yo'qotib yuborilgan. Shuning uchun O'rta Osiyo xalqlarining so'nggi ming yillik madaniyati tarixiga oid yozma manbalargina bizgacha etib kelgan.

IX asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda xalq ozodlik kurashining avj olishi, erlik xalqlarning istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatishi va qo'zg'olonlari natijasida arab xalifaligi hukmronligi ag'darilib, mahalliy

Tohiriylar va soʻngra Somoniylar davlati barpo etildi³.

Bu davrda, madaniyat va sanʼatning rivojlanishi uchun bir qadar sharoit yaratildi. Oʻrta Osiyodan chiqqan qator olimlar xuddi shu davrlarda oʻrta asr fani tarixida oʻzlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur boʻldilar.

Fanning boshqa sohalarida ham oʻlmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari musiqa nazariyasi (“Ilmi musiqiy”) boʻyicha xam ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qoʻllanilgan musika nazariyasining yuzaga kelishida hal etuvchi ahamiyat kasb etadi. X- XV asrlarda yuzaga kelgan musiqiy nazariy risolalarda sharh etilgan tub masalalardan biri maqomlar masalasi boʻlib, zamonasida joriy boʻlgan jonli musiqa asarlarining lad-parda asosini oʻrganishda bizga yordam beradi.

Shuni aytish kerakki, Oʻrta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi hali etarli oʻrganilmagan. Bu masalani, shu jumladan maqomlarning taraqqiyot yoʻlini izchil yoritib beradigan yaxlit asarlar yaratilmagan. Umuman musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni toʻplab, Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir.

Shu sababli hozircha X-XIX asrlarda musiqa manbalaridagi mavjud maʼlumotlarni qisqacha eslatib oʻtish bilan kifoyalanamiz. Musiqa risolalarining katta qismi maqomlarning nazariy asoslarini sharhlab beradi. Dastlab, Oʻrta Osiyo xalqlari musiqa nazariyasini asoslab bergan buyuk siymolardan biri - Abu Nasr Forobiy edi.

Abu Nasr Forobiy. Buyuk faylasuf - olim, oʻrta asr Sharq musiqa nazariyasining asoschilaridan biri - Abu Nasr Muhammad Forobiy 873 yilda Sirdaryo yoqasidagi Forob shahrida tugʻilib, 950 yilda vafot etgan. U Oʻrta Osiyo turkiy qabilalaridan chiqqan boʻlib, dastlabki maʼlumotni oʻz ona shahrida oladi. Durustgina bilim egasi boʻlgan Forobiy Bagʻdod, Damashq shaharlariga, soʻngra

³ Solomonova T. Oʻzbek musiqasi tarixi T., 1981 15-16 bet

Misrga boradi va u erlarda o'z ma'lumotini oshiradi. Forobiy ajoyib musiqachi va musiqa nazariyachisi ham edi. U, o'z davrida mavjud hamma musiqa cholg'ularida chalardi. Ayniqsa kuylarni nay va tanbur cholg'ularida katta mahorat bilan ijro etardi. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, Forobiy qonun cholg'usini ixtiro etgan, o'sha davrlarda mashhur bo'lgan ud sozini takomillashtirishda juda katta ishlar olib borgan.

Buyuk olim falsafa, mantiq, matematika va boshqa fanlar bo'yicha teran ilmiy asarlar yaratgan zamonasining etakchi olimlaridan edi. Musiqa ilmi esa matematika fanlaridan biri hisoblanardi.

Abu Nasr Forobiy o'zining musiqaga bag'ishlagan risolalarida Sharq musiqa nazariyasini asoslab berdi. Uning musiqa asarlari "Kitabul musiqiy al-kabir" ("Musiqaqa doir katta kitob"), "Kalam fil-musiqa" ("Musiqa haqida so'z"), "Kitabul musiqa" ("Musiqa kitobi"), "Kitabun fi-ihsa'il-ulum" ("Fanlar tasnifiga doir kitob")ning musiqaga bag'ishlangan qismi, "Kitabun fiihsa'il-iqo'" ("Musiqa ritmlari - iqo' tasnifi haqida kitob") va boshqalardir.

Forobiyning musiqa asarlari orasida "Kitabul-musiqiy al-kabir" alohida diqqatga sazovordir. Bu kitob mashhur sharqshunos olim D 'Erlanje tomonidan frantsuz tiliga tarjima qilinib "Arab musiqasi" turkumida nashr etilgan⁴.

Asar muqaddima va uch bo'lak kitobdan iborat. Muqaddima qismida muallif kuy ta'rifi, musiqaning nazariy va amaliy masalalari, kuyning paydo bo'lishi, musiqa janrlari, cholg'ular, kuylarning ta'rifi, kuylarning ijrosi, intervallar, tovushqatorlar, konsonanslar va dissonanslar haqida fikr yuritadi.

Birinchi kitobda musiqaviy akustika, nag'ma (tovush)lar nisbati, intervallarning turlari, ularni hosil etilish qoidalari, ritmlar va boshqa masalalar sharhlab beriladi.

Ikkinchi kitobda ud, tanbur, nay, rubob kabi sozlar, ularning pardalari, torlari va diapazoni xaqida gap boradi.

Uchinchi kitob kuylar va maqomlarni hosil etish, ritm, cholg'u va vokal musiqa, kuy bezaklari va boshqa masalalarga bag'ishlanadi.

⁴ Rajabov I. Maqomlar T., 2006 15-bet

Shuni alohida aytish kerakki, Abu Nasr Forobiy o'zining bu o'lmas asarida Sharqda nota yozuvining vujudga kelishida chuqur zamin hozirlab bergan edi. Binobarin, kuylarning parda asosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan lad (maqom) yozuv namunalarini ixtiro etdi va harfiy belgilar vositasi bilan yozib qoldirdi.

Vokalizlarni eslatuvchi bu kuy namunalari o'z harakati bilan zamonasida mavjud musiqa asari, shu bilan birga maqom uslubidagi musiqa asarlari yo'llarini ham ifodalaydi. Forobiyning jadvali o'sha zamonlarda musiqa madaniyatining yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Jadval musiqa nazariyasining amaliyotda qo'llanishning yuksak namunasidir. Unda keltirilgan tovush qator namunalarinikg murakkabligi Forobiy zamonida ijro texnikasining ham yuksak bo'lganligini tasdiqlaydi.

Abu Nasr Forobiyning musiqa risolalarida maqomlar masalasi ilk bor sharhlab berilgan edi. X-XI asrlarda mashhur bo'lgan maqomlarni o'rganishda uning asarlari yagona manba bo'lib xizmat etadi.

Bu o'rinda Forobiyning o'tmishdoshi, ulug' tabib va olim Abu Bakr Muhammad bin Zakariy Ar-Roziy (240) 855 yilda Rayda tug'ilgan) haqida ham eslatib o'tish lozim. Lekin Roziyning musiqaga doir asar yozgani to'g'risida ma'lumot bo'lmasa-da, uning turli fan sohalariga oid kitoblari orasida "San'at haqida o'n ikki kitob" - "Al isno ashara kitoban fis- san'ati" asari ham bo'lgan. Bu kitoblarning biri musiqa nazariyasidan bahs etgan bo'lishi ehtimol.

Forobiy va boshqa olimlarning ilmiy-nazariy asarlari zamonasi talabalariga ko'ra arab tilida yozilgan bo'lib, Sharq musiqasi nazariyasining tub masalalarini sharhlab beradi. Abu Nasr Forobiyning musiqa risolalari va kitoblari bu haqda yozilgan asarlarning eng mukammali va eng mashhurlaridan bo'lib, o'zidan so'nggi davrlarda yashab ijod etgan uning izdoshlari - musiqa olimlari kitoblarining yozilishida asos bo'lib xizmat etdi. Uning shunday izdoshlaridan biri Abu Ali ibn Sino edi.

Abu Ali ibn Sino. O'rta Osiyodan chiqqan ulug' olim Ibn Sino (980-1037) Buxoroga yaqin Afshona qishlog'ida tug'ilgan. U buyuk faylasuf,

tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi ham edi. Ibn Sinoning “Kitabush -shifa” (“Shifo kitobi”), “Donish noma” (“Bilim kitobi”), “Kitabun najat” (“Najot kitobi”) kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” (“Musiqiy ilmi haqida risola”⁵) kabi risolalari Abu Nasr Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi.

Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri - “Kitabush - shifa” falsafiy xarakterda bo‘lib, unda muallifning tabiiy-ilmiy qarashlari aks ettiriladi. Muallif 13 qismda zamonasidagi tabiiy fanlarni sharhlab beradi. Shu jumladan bu erda musiqaning nazariyasi ham yoritiladi. Asar 4 ta katta bo‘limdan iborat:

1. Mantiq
2. Fizika (Tabiiyot)
3. Aniq fanlar
4. Metafizika

Aniq fanlardan biri musiqadir. Ibn Sino bu erda musiqa nazariyasini atroflicha talqin etadi. Musiqa akustikasi, tovushlar, intervallar, jins va jam’lar, maqomlar, ritmlar va kuylar masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab beriladi.

Uning yana bir asari “Kitabun-najat”ning musiqaga bag‘ishlangan qismi musiqaning unsurlarini nazariy jixatdan qisqacha sharxlab beradi. Bu asarda maqomlar masalasiga ham o‘rin ajratilgan.

Ibn Sinoning tojik tilida yozilgan “Donishnoma” nomli asarida ham musiqaning ba’zi nazariy masalalari matematikaga bag‘ishlangan qismda sharh etilgan. Uning boshqa falsafiy asari - “Kitabul-ishorat” (“Qo‘llanma kitob”) ham musiqa ilmiy nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir.

Ibn Sinoning “Shifo”, “Najot”, “Ishorat” va “Donishnoma” kabi falsafiy asarlari jaxon fani va madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu hol jaxonning turli mamlakatlarida olimlarning Ibn Sino asarlari bilan kuchli qiziqishini ko‘rsatuvchi dalillardan ham ko‘rinib turadi.

⁵ Oqilxon Ibraximov, Jamil Sadirov Musiqa 7-sinf uchun darslik T., 2008 84-bet

Ibn Sino musiqa haqida maxsus ilmiy-nazariy asarlar yozish bilangina cheklanmadi, balki musiqaga bag'ishlangan asarlarini meditsina kitoblarida ham aks ettirdi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta. Ibn Sino o'zining meditsinaga oid o'lmas asarlarida, musiqaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergani holda, ruxiy kasalliklarni davolashda uni yuksak qadrladi va shifo dasturi sifatida tavsiya etdi.

Ibn Sino o'zining "Tib qonuni" kitobida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta'riflaydi: "Go'dakning organizmi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onaning qo'shig'i (allasi). Birinchisi (bolaning) tanasiga, ikkinchisi - ruhiga tegishlidir" Manbalarda sharh etilgan musiqaning nazariy masalalarini taqqoslab ko'rish shuni isbotlaydiki, Ibn Sino o'zining musiqa risolalarida Forobiyning musiqaviy nazariy va musiqaviy-estetik qarashlarini yanada rivojlantirdi va yuqori pog'onaga ko'tardi. Musihashunos-mutaxassislar Ibn Sinoning jahon musiqasida birinchi bo'lib sof soz tizimini aniqlaganligini ko'rsatib o'tdilar".

Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino o'zlarining risolalarida Sharq musiqa nazariyasini sharhlab, ayniqsa maqom masalalarini nazariy jihatdan asoslab berdilar va ularning asarlarida bu masala o'zining klassik ta'rifini topdi. Buyuk olimlarning maqom haqidagi izchil ta'limoti bu masalaning yoritilishida, XIII - XV asrlarda yashab ijod etgan musiqa nazariyachilari asarlari mazmunini aniqlab berdi. Bu hol Urmaviy, Sheroziy, Husayniy va Jomiy asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Al-Kindiy (IX asr), Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino kabi mashhur olimlarning asarlari ko'p asrlar davomida Sharq xalqlari musiqa nazariyasini sharhlab berishda asosiy manba bo'lib xizmat etdi va so'nggi davrlarda yaratilgan musiqa risolalarining mazmunini aniqlab berdi. Abu Nasr Forobiy zamonasidan boshlab, qariyb XV asrlargacha yozilgan musiqaga doir nazariy risolalarning mavzui, mundarijasi, ularning ichki mazmunidagi ba'zi tafovutlardan qat'iy nazar, ko'p masalalarda bir-biriga juda yaqin turadi.

1.2 XIII - XIV asrda Sharq musiqa ilmining rivojlanishi

Sharq musiqa risolalarida qo'yilgan masalalar hozirgi zamon musiqasi unsurlar (elementar) nazariyasiga yaqin turadi. Lekin o'rta asr musiqa risolalarida Sharq xalqlari o'tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar xam borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bular umuman uchramaydi. Chunki Sharq musiqa nazariyasida bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar o'tmishda ijro etilib kelingan musiqa asarlariga aloqador amaliy masalalar bilan bog'liq edi.

X - XVIII asr yozma manbalarida musiqa nazariyasi va amaliyotidagi eng muxim masalalar o'z ifodasini topgan. O'rta asr musiqa olimlari nazariy masalalarda ko'proq Forobiy, Ibn Sino asarlarida berilgan ta'rifni asos qilib olganlar. Musiqa nazariyasi so'nggi davrlarda yashab, ijod etgan musiqa olimlari - Safiuddin Abdulmo'amin, Mahmud bin Mas'ud Sheroziy (XIII - XIV), Xo'ja Abdulqodir (XIV asr), Zaynulobidin Husayniy, Abduraxmon Jomiy (XV asr) va boshqalarning asarlarida yanada rivojlantirilgan edi.

Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan bu risolalarda ayrim masalalar yuzasidan ba'zi ixtiloflar mavjud. XIII asrning ulkan olimi Safiuddin Abdulmo'amin Urmaviy Forobiyning nazariy mulohazalarini ba'zi masalalarda to'g'ri kelmasligini isbotlashga harakat qilgan edi. Bunday ixtiloflar musika akustikasi, musiqa tovushi, ritm (iqo') ta'rifida, ud cholg'usidagi ayrim pardalarning o'rnini aniqlashda va boshqa masalalarda o'z ifodasini topgan. Bunday ixtiloflarda qariyb uch asrdan ko'proq o'tgan davr musiqasining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan musiqa nazariyasi va amaliyotidagi o'zgarishlar o'z aksini topdi.

Safiuddin Urmaviy. Ozarbayjon xalqining ulug' olimi (Mahmud Sheroziyning aytishicha: "O'z zamonasida musiqa nazariyasi bo'yicha unga teng keladigan olim bo'lmagan...") Safiuddin Abdulmo'amin Urmaviy (vafoti 1294y.) Sharq musiqa nazariyasi va amaliyotida yuksak darajali muvaffaqiyatlarga erishdi. U o'z salaflari boshlab bergan "musiqiy ilmi"ni

yanada yuksak boskichga olib chiqdi. Uning “Risalatush-Sharafiyya” (“Sharafli risola”) va “Kitabul-advar” (“Musiq va ritm doiralari kitobi”) asarlari Sharq musiqa nazariyasi taraqqiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi.

Shuni alohida aytish kerakki, Urmaviy o‘z asarlarida “O‘n ikki maqom” (“Duvozdahmaqom”), “Ovoza” va “Sho‘ba”lar masalasini birinchi bo‘lib tizimlashgrib berdi. Binobarin, Sharq nota yozuv namunalarini ixtiro etdi va ularda maqom va boshqa tarzda yaratilgan kuylarni yozib qoldirdi ⁶.

Urmaviyning “Sharafiyya”si musiqa nazariyasi va qisman maqom (lad)lar masalasini yoritib bergan bo‘lsa, “Kitabul-advar” asari maqom va ritm doiralari ustida bahs etadir.

O‘rta Osiyo xalqlarida xam XVIII asrlargacha yashab kelgan maqomlar tizimi, taxminan, shu davrlarda o‘zining aniq ifodasini topgan zdi (bu erda gap maqomlarning lad asosi hakida boradi).

Safiuddin Urmaviyning musiqa asarlari bilan tanishib chiqilganida uning nazariy mulohazalari musiqa amaliyoti bilan chambarchas bog‘liq ekanini ajratib olish qiyin emas. Muallif o‘z asarlarini ko‘pincha Eron ozarbayjoni va arab musiqasini ko‘zda tutib yozgan bo‘lsa-da, ular O‘rta Osiyo xalqlari musiqasiga xam taalluqlidir. Chunki uning asarlarida o‘tmishdoshlari - Forobiy va Ibn Sino kabi olimlarning musiqaviy nazariy qarashlari aks etadi.

Shunday qilib, Safiuddin Urmaviyning musiqaga bag‘ishlangan risolalalari Sharq xalqlari, shu jumladan O‘rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati, xususan maqomlar tarixida alohida bosqichni tashkil etadi. Olimning xizmatlari yana shundan iboratki, u o‘zining o‘tmishdoshlari mulohazalariga tanqidiy karadi, shu bilan birga Sharts musiqa nazariyasini yangiliklar bilan boyitdi, unga aniqliklar kiritdi hamda musika madaniyati taraqqiyotiga bebaho ulush qo‘shdi. Bu narsa, Urmaviydan keyinroq yashab ijod etgan ulkan qomuschi olim Mahmud Sheroziynmng asarida ham ko‘rsatib o‘tiladi.

Mahmud Sheroziy. Maxmud bin Mas‘ud Sheroziy yashagan davr

⁶ Rajabov I. Maqomlar T., 2006 20-bet

tarixiy voqealar bilan to'la bo'lgan edi. Bu vaqtda O'rta Osiyo xalqlari Chingizxon galalarining hukmronligi ostida qoldilar. Bosqinchilar shaharlarni vayron hilib, mehnatkash aholini qirdilar. O'rta Osiyo xalqlari xo'jalikda va madaniyat sohalarida tanazzulga yuz tutdi, mahalliy fan, adabiyot va san'at taraqqiyoti qattiq zarbaga duch keldi. XIII-XIV asrlarda fan, adabiyot va san'at iste'lochilar bosib olmagan erlardagina rivojlanishda davom etadi. Mahmud Sheroziyning musiqiy asari ham xuddi shu davrning mahsuli edi.

Mahmud bin Mas'ud Qutbiddin Sheroziy zamonasining "allomasi" edi. U 1236 yilda hozirgi Eronning Sheroz shahrida tug'ilib, 1310 yilda Tabrizda vafot etgan. Sheroziy zamonasining ma'lumotli va ilg'or kishilaridan bo'lgan. Uning otasi tabib va ma'lumotli kishi bo'lib, o'z o'g'liga ma'lumot berishga tirishadi. U dastlabki ma'lumotni o'z otasida, keyin amakisida oladi, so'ngra mashhur olim Nasruddin Tusiy (vafoti 1274 yil)ga shogird tushadi. Uzoq yillar davomida Rum, Suriya va boshqa mamlakatlarga sayoxat qilib, Tabrizga qaytib keladi. Bu erda mudarrislik qiladi va o'z o'tmishdoshlariniing astronomiya, tibbiyot, falsafa va shunga o'xshash asarlariga sharhlar yozadi. Ular orasida ayniqsa Ibn Sinoning "Qonunu fittibb" asariga yozgan sharhi aloxida diqqatga sazovor bo'lgan.

Mahmud Sheroziy o'zining uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari natijasida "Durratut-toj..." ("Toj durlari...") qomusiy asarini fors tilida yozilgan dastlabki ishlardan bo'lib, shu sababli tili xam juda murakkabdir. Bu asarning musiqaga bag'ishlangan qismi "Dar ilmi musiqiy" ("Musiqiy ilmi hakida") - deb atalib. muqaddima, beshta maqola va xotima qismlaridan iborat⁷.

Muqaddima qismida tovushlarning paydo bo'lishi, musiqa tovushlari haqida gapiriladi. Birinchi maqolada "savn" (umuman tovush), "nag'ma" (musiqiy tovush)lar ta'riflanadi. Ikkinchi maqolada musiqiy tovushlarining bir-biriga nisbati, intervallar va yoqimli-yoqimsiz interval (konsonans va dissonans)lar haqida gapiriladi. Uchinchi maqola intervallarni bir-biriga

⁷ Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir T., 1963 22-bet

qo'shish va bir-biridan ayirish, ularni turli qismlarga bo'lish, binobarin jins (tetraxord)lar hosil qilish yo'llari ustida bahs etadi. Bu uchchala maqolaning har biri o'nta qism (fasl)da sharxlanadi.

To'rtinchi maqola to'rt qism va o'n bitta bahsni o'z ichiga olgan xotimadan iborat bo'lib, jinslar, jam' (tovushqator)lar, maqomlar va musiqa cholg'ulari masalalariga bag'ishlangan. Bu o'rinda muallif 70 ga yaqin jam' va maqomlarni keltiradi (Maqom nima? qismiga qarang).

Asarning ettita qismdan iborat beshinchi maqolasida - ritm (iqo') va usullar to'g'risida fikr yuritiladi. Oxirgi xotima qismida esa kuylarning yozuv usullari-notatsiyalar masalasi yoritiladi.

Mahmud Sheroziyning musiqa risolasi o'zining to'laligi, chuqur ilmiy asosda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu asarda Forobiy zamonasidan to XIV asr boshlariga qadar Sharq musiqa nazariyasining tarixiy taraqqiyot yo'li o'z ifodasini topgan. Muallif musikaning ma'lum nazariy masalasi yuzasidan fikr yuritir ekan, u o'tmishdoshlari asarlarida berilgan ta'riflarni bir-biriga taqqoslab, ulardan parchalar keltiradi hamda o'zining tanqidiy mulohazalarini aytadi; eng so'nggida esa, har bir nazariy masala yuzasidan o'zining puxta ta'rifini beradi.

“Dar ilmi musiqiy” asarini o'z zamonasida bu sohada yaratilgan risolalar orasida jiddiy ilmiy tadqiqot natijasida yuzaga kelgan mukammal nazariy qo'llanma deyish mumkin. Bu teran asar Mahmud Sheroziyning musiqaning nazariy ham amaliy masalalarini chuqur egallagan bilimdon kishi bo'lganligini tasdiqlaydi Yuqorida aytib o'tilganidek, maqomlar masalasini yoritishda ham bu risola eng ishonchli manbalardan biri xisoblanadi. Mahmud Sheroziy maqomlar bobida musiqaning lad qurilmalarini sinchiklab tahlil qilish yo'li bilan umumlashtirib beradi.

BIRINCHI BOB YUZASIDAN XULOSA

Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan Sharq allomalari risolalari va ularda bitilgan ma'lumotlar bugunki kunda ularni o'rganish, tahlil qilish juda kerakli masalalardan biri bo'lib qoldi. IX - XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar, allomalar risolalari va tarixiy-adabiy xarakterdagi manbalarning ko'plarida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz musiqa ijodiyoti tarixan asosan Og'zaki an'ana sharoitlarida rivojlanib kelgan. Ammo, Sharq musiqa nazariyasi masalalariga bag'ishlangan IX – XIII asr risolalarida musiqaning bir qator unsurlarini maxsus yozuvda belgilashga harakatlar amalga oshirilgan.

Bu davrda, madaniyat va san'atning rivojlanishi uchun bir qadar sharoit yaratildi. O'rta Osiyodan chiqqan qator olimlar xuddi shu davrlarda o'rta asr fani tarixida o'zlarining ilmiy asarlari bilan jahonga mashhur bo'ldilar.

Fanning boshqa sohalarida ham o'lmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo'llanilgan musika nazariyasining yuzaga kelishida hal etuvchi ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Forobiyning "Kitobul musiqiy al-kabir" asarida bunday izlanishlar o'zining ilk bor yechimini topgan edi va Sharq nota yozuvining yaratilishida zamin bo'ldi (yozuvlar doira va maxsus jadval shakllariga tushirilgan bo'lib, asosiy tovush pog'onalari ud cholg'usi pardalarini aks ettiruvchi harflar yordamida belgilangan).

Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri - "Kitabush - shifa" falsafiy xarakterda bo'lib, unda muallifning tabiiy-ilmiy qarashlari aks ettiriladi. Muallif 13 qismda zamonasidagi tabiiy fanlarni sharhlab beradi. Shu jumladan bu erda musiqaning nazariyasi ham yoritiladi.

Aniq fanlardan biri musiqadir. Ibn Sino bu erda musiqa nazariyasini

atroflicha talqin etadi. Musiqa akustikasi, tovushlar, intervallar, jins va jam'lar, maqomlar, ritmlar va kuylar masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab beriladi.

Uning yana bir asari "Kitabun-najat"ning musiqaga bag'ishlangan qismi musiqaning unsurlarini nazariy jihatdan qisqacha sharxlab beradi. Bu asarda maqomlar masalasiga ham o'rin ajratilgan. "Risalatun fi-ilmil-musiqiy" ("Musiqiy ilmi haqida risola") kabi risolalari Abu Nasr Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi.

Shuni aytish kerakki, O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixi hali etarli o'rganilmagan. Bu masalani, shu jumladan maqomlarning taraqqiyot yo'lini izchil yoritib beradigan yaxlit asarlar yaratilmagan. Umuman musiqa madaniyatiga doir tarixiy materiallar turli tillarda yozilgan manbalarda va boshqa xarakterdagi asarlarda sochilgan holdadir. Bu materiallarni to'plab, O'rta Osiyo xalqlari musiqa madaniyati tarixini yaratish esa juda murakkabdir.

Sharq xalqlarining musiqa merosida maqomlar juda katta o'rin tutadi. Shu sababli maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini ko'pdan beri o'ziga jalb etib, so'nggi davrlarda ham ko'pgina musiqashunos olimlar maqomlar xaqida o'zlarining fikrlarini bildirib kelganlar.

II - bob. Umumta'lim maktablari 7-sinfida Sharq allomalari musiqa haqida risolalari bilan tanishtirish uslublari

2.1. Umumta'lim maktablari 7-sinfida XIV – XV asr Sharq allomalari risolalari bilan tanishtirish

O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar barakali samaralar berdi. XIV asrlarda O'rta Osiyoda markazlashgan Temuriylar davlati barpo etildi. Bu davrda adabiyot va san'atning ravnaqi uchun sharoitlar yaratilgan edi. Sohibqiron Temur saroyida ko'p olimlar, shoirlar, musiqachilar xizmat qilgan edilar. Tarixchi olimlarning Temurning yurishlarini aks etgiran kitoblarida yo'l-yo'lakay o'sha zamonning musiqa hayoti bilan bog'liq bo'lgan qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Ulugʻbek Samarqandni idora qilgan davrda (1409-1449) fan va madaniyatning ravnaqiga katta ahamiyat berib, oʻz atrofiga olim, shoir, musiqachi va boshqa sanʼat ahllarini toʻplagan edi. Bu davrda qimmatli madaniy boyliklar yaratildi, asosan matematika, astronomiya, tarix va boshqa fanlar rivoj topdi.

XIV-XV asrlarda Oʻrta Osiyo madaniyati, oʻrta asr adabiyoti va musiqasining eng yuksalgan davri ulugʻ oʻzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) va tojik klassik shoiri va atoqli olimi Abdurahmon Jomiy (1414-1492) yashagan davr edi. Bu vaqtda temuriylarning ikkinchi yirik madaniyat markazi Hirotida fan, adabiyot va sanʼat rivojlandi. Sulton Husayn Mirzo (1458-1506) hukmronligi vaqtida shoir va musiqachilarning katta qismi saroyga, xususan, ulugʻ Navoiyning atrofiga toʻplangan edilar. Hirotida sheʼriyat va musiqa ayniqsa gullab-yashnadi. Bu davrda yaratilgan koʻpsonli sheʼriyat va musiqa haqidagi asarlar, nazariy risolalar, adabiyot va musiqa madaniyatining yuksak boʻlganligini tasdiqlaydi.

Navoiy va Jomiy zamonasidagi musiqa madaniyati tarixini oʻrganish borasida, musiqa bilan bilvosita bogʻliq boʻlgan tarixiy, adabiy xarakterdagi asarlar ham asosiy manbalar sifatida juda katta ahamiyatga ega. Bu asarlarda sozanda, xonanda va bastakorlar nomi, oʻsha vaqtlarda isteʼmolda boʻlgan sozlar, xon saroylaridagi bazmlar, ommaviy sayil va bayramlarda ijro etilgan ashula va raqslar toʻgʻrisida gapiriladi. Sulton Husayn davrida bayramlarda jamiyatning boshqa tabaqalari qatori xunarmandlar ham qatnashib, koʻchalarda va jamoa toʻplanadigan erlarda ashula hamda oʻyinlar uyushtirardilar.

XV asr adabiyoti va musiqasining yodgorliklari qatorida sheʼr devoni va bayozlarini ham koʻrsatib oʻtish lozim. Navoiy va Jomiy, ularning zamondoshlari bunday sheʼr toʻplamlarini koʻplab tuzgan edilar. Bu sheʼr toʻplamlaridan musiqachi-bastakorlar maqomlarning ashula yoʻllariga sheʼrlar tanlab olishardi. Shuning uchun ham bu toʻplamlar musiqa madaniyati tarixini oʻrganishda muhimki, ular musiqachi va bastakorlar uchun zarur qoʻllanma boʻlib xizmat etgan, binobarin hozirda XV asrlarda ijro etilgan ashulalarning sheʼr

matni mazmuni qanday bo'lganini aniqlashga imkon beradi.

Navoiy va Jomiy zamonida juda ko'p musiqa nazariyachilari, mohir sozanda va xonandalar hamda bastakorlar, maqomdonlar etishib chiqdi.

Mavloni Jomiy. Tojik xalqining buyuk klassik shoiri va atoqli olimi Mavloni Nuriddin Abdurahmon bin Ahmad al-Jomiy (1414 - 1492) Nishopur yaqinidagi Jom qishlog'ida dunyoga kelib, Hirot shahrida ta'lim oladi va umrining oxirigacha shu erda yashaydi.

Uning ko'p qirrali ijodiy faoliyati adabiyot, fan va san'at sohalarida barakali bo'ldi. Abdurahmon Jomiy juda ko'p ilmiy va adabiy xarakterdagi kitob va risolalar muallifidir. Uning ilmiy asarlari orasida musiqaga bag'ishlanib yozilgan "Risolai musiqiy" ("Musiqi risolasi")⁸ asari musiqi nazariyasi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ayniqsa maqomlarni o'rganish borasida diqqatga sazovordir.

Abdurahmon Jomiy zo'r sozanda va bastakor ham bo'lgan. Professor Fitratning zikr etilgan asarida Jomiy o'z zamonasida mashhur bo'lgan "Naqshi Mullo" nomli musiqi asari yaratganligi haqida eslatib o'tiladi. Bu asar ashula yo'llaridan biri bo'lib, Jomiyning bastakor bo'lganligini tasdiqlaydi. Jomiy musiqi sohasining amaliy va nazariy tomonlarini chuqur egallagan san'atkor edi.

Abdurahmon Jomiyning "Risolai musiqiy" asari Navoiyning iltimosi bilan buyuk olimning keksayib qolgan vaqtida yozilgan edi. Navoiy o'zining "Xamsatul-mutaxayyirin" asarida bu risolaning yuzaga kelishi haqida eslatib o'tadi⁹.

Jomiyning risolasi ixcham (hammasi bo'lib 8 varaq), ommabop va o'zining chuqur mazmundorligi bilan xarakterlidir.

Abduraxmon Jomiyning musiqiy risolasi XV asrlarda joriy bo'lgan maqomlarni o'rganishda, zamonasidagi musiqaning nazariy va amaliy masalalarini tushunishda zo'r manbalardandir, binobarin Navoiy va Jomiy

⁸ Yunusov R. O'zbek musiqi ijodi 1-qism T., 1999 7-bet

⁹ Solomonova T. O'zbek musiqasi tarixi T., 1981 16- bet

davridagi musiqa madaniyatning taraqqiy etishida muhim o‘rin tutgan edi. Jomiyning risolasi o‘sha zamonda yaratilgan va bizgacha etib kelmagan boshqa musiqa risolalari mazmunini ko‘rsatib beruvchi asar namunasi bo‘lib ham xizmat etadi.

Zaynulobidin Husayniy. XV asrning eng yirik musiqa nazariyotchilaridan biri - Zaynulobidin bin Muhammad bin Mahmud al-Husayniydir. Uning hayoti va ijodi haqida aniq ma’lumotlar saqlanmagan. Husayniy o‘zining “Qonun” asarida ko‘rsatib o‘tishicha, risola uning ba’zi do‘stlarining tavsiyasi bilan yozilgan. Bu asar matematika ilmlarining biri hisoblanib, musiqaning ilmiy va amaliy masalalaridan bahs etishi muallif tomonidan ta’kidlanadi. Risola Alisher Navoiyga bag‘ishlangan bo‘lib, uni maqtab yozilgan qasida ham keltiriladi. Bu qasidada turli maqomlarning nomi so‘z o‘yini bilan foydalanilgan. Yuqoridagi fikrlardan “Qonun” asari Navoiyning tavsiyasi bilan yozilgan, - deb o‘ylash mumkin va muallifning “ba’zi do‘stlari”, shubhasiz buyuk shoirdir. Asarning to‘liq nomi “Qonuni ilmiy va amaliy musiqiy” (“Musiqaning ilmiy va amaliy qoidalari”) bo‘lib, 24 bobdan iborat. Husayniy musiqaning ilmiy va amaliy masalalarini chukur egallagan yirik olim, bastakor va mohir sozanda bo‘lganini tasdiqlaydi¹⁰.

Alisher Navoiy. Buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri hazrat Alisher Navoiy (1441-1501)ning ko‘pqirrali ijodida musiqaga doir qator masalalar o‘z ifodasini topgan edi. Navoiyning musiqa sohasidagi faoliyati xali etarli o‘rganilmagan va bu borada chuqur va atroflicha maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilishi lozim. Bu o‘rinda Navoiyning musiqa madaniyati taraqqiyoti tarixida o‘ynagan katta rolini xisobga olib, ba’zi muloxazalarni aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalariga bag‘ishlab, maxsus asar yaratmagan. Uning “Mahbubul qulub” asaridagi sozanda va xonandalarga bag‘ishlangan qism bundan mustasnodir. Ulug‘ san’atkorning musiqa to‘g‘risidagi fikrlari va musiqaviy-estetik qarashlarini

¹⁰ Isxoq Rajabov Maqomlar T., 2006 25-26 bet

aks egtiruvchi faktlar uning adabiy, tarixiy va ilmiy xarakterdagi asarlarida sochilgan holdadir.

Bu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning so‘zlari bag‘oyat ta’sirlidir:

“Otashin yuzluk mug‘anniyki, xilqidin
muloyim surud chiqorg‘ay.
Hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay”.

Ya’ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahlining qalbini yondiradi, kuydiradi¹¹.

Navoiyning asarlari bilan tanishar ekanmiz, musika san’atiga taalluqli qator masalalarga duch kelinadi. U yirik madaniyat arbobi sifatida, san’atning xamma sohalarini yuksak badiiy did bilan baholay olgan, shu bilan birga musiqa amaliyoti va nazariyasi masalalarida chuqur bilimdon edi. Shuning uchun ham o‘zining asarlarida musika masalalarini chuqur aks egtirib, musiqaga doir atamalarni ongli ravishda, tushungan holda ishlatadi. Bunday atamalar Navoiy davridagi musiqaning nazariy va amaliy masalalari bilan bog‘liq bo‘lib, zamonasining musiqaviy hayotini yoritishda qimmatli manba hisoblanadi. Navoiy tilga olgan boshqa masalalar xam borki, ularni musiqaga oid boshqa manbalar vositasi bilangina tushunish mumkin.

Navoiyning asarlarida o‘z ifodasini topgan eng muhim masalalardan biri - musiqa cholg‘ulari yoki sozlar masalasidir.

Musiqa cholg‘ulari - musiqa madaniyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonini aniqlashda hal etuvchi omillardan xisoblanadi.

Navoiyning dostonlarida, devonlarida. “Maxbubul-qulub”, “Majolisun-nafois” kabi asarlarida juda ko‘p sozlar nomi tilga olinadi. Ular orasida ud, nay, g‘ijjak, tanbur, chang, rubob, qo‘biz, qonun, rud, chag‘ona, daf, ya’ni doyra, nog‘ora cholg‘ularining nomi juda ko‘p uchraydi. Bu sozlarning ba’zilari bizning kungacha etib kelmagan, bir xillari Urta Osiyoda iste’moldan chiqib

¹¹ Alisher Navoiy “Mahbub – ul qulub”

ketgan; uchinchi bir xillarining shakli o'zgarib ketib, nomigina saqlanib qolgan.

Ud cholg'usi o'tmishda musiqaning nazariy masalalarini tushuntirishda etakchi soz bo'lgan. Uning tuzilishi haqida xozirda aniq ma'lumot bor. Agar, "Maxbubul-qulub"da aks ettirilgan uning sado berish xarakteri xam hisobga olinsa, udni xozirgi kunda bekamu ko'st tasavvur etish mumkin.

Nay, g'ijjak, qonun, daf, nog'ora, surnay, karnaylarni - bu sozlarning bizgacha etib kelgan turlariga yaqin bo'lgan deyish mumkin. Bu erda pardalar o'rni, sozlardan xosil etiladigan tovushlar tizimida va ba'zan ularning shakllaridagina farqlar bo'lishi mumkin.

Manbalarda tanbur sozi ikki xil bo'lganligi qayd etiladi. Uning kamon va mezrob bilan chalinadigan turlari bo'lgan. Lekin ko'rinish shakli hozircha noaniqroqdir.

Chag'ona cholg'usi xozirgi kunda Kavkaz, Turkiya va Eron xalqlarida bo'lgan qonunga o'xshash barmoqlar bilan tirnab chalingan. Qadimiy sozlardan rubob arabparla kamonli cholg'u bo'lib, Urta Osiyoda chertib yoki tirnab chalingan.

Navoiy davridagi dutor cholg'usi XV asrning etuk musiqa nazariyachisi Husayniyning mazkur "Qonun" asarida tavsiflab berilgan. U vaqtlarda dutor hozirgi shaklidan farq etgan va ud cholg'usidan kichikroq, parda tuzilishi esa udnmkiga o'xshash bo'lgan va mezrob bilan chertib chalingan.

Navoiy davri va undan avvalgi davrlarda chang sozi yoysimon shaklda bo'lgan, hozirgi changdan tubdan farq etgan va barmoqlar bilan tirnab chalingan.

Shunday qilib, Navoiy davridagi musiqa cholg'ularini o'rganilishida qator noaniqliklarga duch kelinadi. Bu borada Navoiy asarlarida keltirilgan fikr va mulohazalar bizga katta yordam beradi. Navoiyning ba'zi asarlarida sozlarning ayrim sado berish hususiyatlari ustalik bilan, obrazli qilib chizib beriladi¹².

¹² Isxoq Rajabov Maqomlar T., 2006 27-bet

Nay maftunkor, mayin sado beradi. G'ijjakning sadosi yig'loqi, tanburniki dilkash, ud va chang - yurakni ezuvchi, rubob yolboruvchi, qo'biz - rohatbaxsh, qonun bilan chag'onaning sadosi esa faryodu fig'onga o'xshash yangraydi. "Sab'ai sayyor"da changning sadosi kishini tinchlantiruvchi, hayotbaxsh ekani ta'kidlanadi.

Navoiy asarlarida kuylar va ularning shakllari masalasi ham aks etgan. Ma'lumki, Navoiyning o'zi durustgina bastakor edi. U ba'zi maqom yo'llariga moslab, naqsh, peshrav shakllarida musiqa asarlari yaratgan edi. Bundan ma'lum bo'ladiki, Navoiy musiqa amaliyotining eng nozik tomonlarini ham chuqur bilgan.

Navoiy zamonida bastakorlar ko'proq amal, savt, naqsh, peshrav, tarona shakllarida kuy va qo'shiqlar yaratganlar. Navoiy "amal" atamasini "ish" deb ham ataydi. U davrda hozirgi ma'nodagi nota yozuvlari bo'lmagani sababli kuy va ashulalarning namunalari ham bizgacha etib kelmagan hamda bu kuylarning shakllari xaqida aniq fikr aytib bo'lmaydi. Lekin, bizgacha etib kelgan klassik musiqamizning yuksak namunasi xisoblangan Shashmaqomning cholg'u va ashula yo'llarida peshrav shakllari uchraydi. Amal, naqsh, ish, taronalar esa umuman "Tarona" yoki "Suvora" nomi bilan ataladi.

Xulosa shuki, Navoiy davri musiqasida hozirgi tushunchadagi "Tarona"larning xili ko'p bo'lgan hamda ular kuy shaklining xarakteriga qarab turlicha nomlangan. Hozirgi kunda bunday kuy shakllari nomlarini maqomdonlar butunlay unutib yuborganlar.

XVI asrda yashab ijod etgan musiqa olimi Kavkabiylar Buxoriy, XVII asr yetuk san'atkori Darvish Ali Changiy va boshqa mualliflarning musiqa risolalarida XV-XVII asrdagi kuy va ashulalarning turlariga ta'rif berilgan. Lekin bular ham kuy shakllarini aniqlashga etarli yordam berolmaydi. Har holda, arap Navoiy yoki boshqa olimlar, bir bastakor ma'lum maqom yoki uning sho'basiga amal, naqsh bog'lagan desalar, o'sha maqom yo'llariga ulanib ketadigan, kuy mavzusi jihatidan ularga hamohang bo'lgan musiqa asarlarini ko'zda tutganlar. Naqsh, peshrav va amallar uncha katta shaklda

bo‘lmagan.

Navoiy davrida doyra va nog‘ora usullari juda ko‘p yaratilgan. Ba‘zi mubolag‘alarga ko‘ra, nog‘orachilar usullar orqali bir-birlariga o‘z fikrlarini ham anglata olganlar va hatto savol-javob qilishgan.

Hozirda Navoiy asarlarida, Abdurahmon Jomiyning musiqiy risolasida, so‘nggi davrlarda yaratilgan Kavkabiyy va Darvish Ali kabi yirik musiqa olimlarining risolalarida keltirilgan doyra, nog‘ora usullarini tiklashga to‘la imkoniyat bor va hozirgi zamon notasiga ko‘chirib, rasshiforvka qilish mumkin.

Bu usullarni o‘rganish faqatgina Navoiy asarlarida tilga olingan qo‘shiq, ashula yoki kuylarning ritmik asoslarinigina emas, balki she‘riyat bilan musiqa asarlari orasidagi munosabat masalalarini ham ochib berishda muhim o‘rin tutadi.

Navoiyning ko‘rsatishicha she‘r vaznlari sabab, vatad va fosila deyilgan uch xil ruknlardan tuziladi. Musiqa risolalarida ham xuddi shunday. She‘r o‘lchovlari harakatli va harakatsiz undoshlar vositasi bilan yuzaga keladi. Musiqa nazariyasida esa ritm o‘lchovlari shartli qabul etilgan (**tan, tana, tanan, tanna, tananan** kabi) so‘zlar vositasi bilan ifodalanadi. She‘r o‘lchovlari va musiqa ritm o‘lchovlari bir xil asosga ega ekanligi ularning uzun-qisqa bo‘g‘inlardan tashkil topganligidadir.

O‘tmishda musiqaviy ritm o‘lchovlari turlicha ma’noda ishlatilgan.

1. Doyra va nog‘ora usullari tarzida, masalan: “bak-baka-bum” yoki “tak- taka tum” - musiqa risolalarida - tan-tananan” kabi ifodalangan.

2. Ritm o‘lchovidagi ruknlar kuylarning ritmik asosini ifodalashda ham ishlatilgan. Masalan, har qanday kuyni ritm o‘lchovi ruknlari vositasi bilan xirgoyi qilib kuylash mumkin. Bu o‘rinda “tan, tana, tanan”lar kuyni tashkil etadigan uzun-qisqa nota ulushlariga ham mos keladi.

3. Shu ruknlar bilan ashulalarga aytiladigan she‘r mantlari tanlab olingan. Masalan, bunda dastlab, ashula qilib aytiladigan kuy, o‘sha “tan-tanan”lar vositasi bilan xirgoyi qilinib, kuyga mos she‘rning vaznini tashkil

etadigan uzun-qisqa bo'g'inlar aniqlab olinadi.

Bu erda shuni aytish lozimki, ashulalarga mos she'r o'lchovlarining ruknlari yoki ulardagi bo'g'inlarning uzun-qisqaligi kuylarning ritmik holatiga ham ta'sir tushishi mumkin. Uzun bo'g'inlar bir yoki bir necha uzun-qisqa notalarga, qisqalari qisqa notalarga mos kelishi mumkin. Shunday qilib, kuy bilan she'r matni shaklan moslanadi.

Navoiyning "Mezonul-avzon" asari musiqaning boshqa amaliy masalalarini o'rganishda ham zo'r manbadir. Navoiy "Tuyuq", "Qo'shiq", nikox to'ylarida aytiladigan "Changi", "Arzuvoiy", "Turkiy" kabi ashula va qo'shiqlar ustida so'z yuritadi, ularning she'r matnini ham keltiradi. Bu shuning uchun ham muximki, maqomlar jumlasiga kirmaydigan xalq kuy va ko'shiqlari haqida ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Navoiyning mazkur asari bu haqida yagona manbalardandir.

Navoiy va Jomiyning ko'tarib chiqqan nazariy masalalari, ularning o'zlari tomonidan amaliyotda ham ko'rsatilib, tasdiqlab berilgan edi. Natijada ular she'rriyat bilan musiqaning aloqalarini nazariy jihatdan mustahkamlovchi butun bir maktab yaratib berdilar. Bu maktab Navoiy zamonidan boshlab, to bizning kungacha aruzda ijod etgan shoirlar, sozanda-xonanda va bastakorlar uchun muhim maktab bo'ldi va ularning badiiy-estetik qobiliyatini tarbiyalashda hal etuvchi ahamiyat kasb etdi.

2.2. Sharq allomalarining musiqiy risolalarida bitilgan bastakorlik san'ati va kuy shakllari bilan tanishtirish

Bastakorlik an'anasi musiqa asarlarining rivojlanishi va takomillashuvida hal etuvchi ahamiyatga ega. Shashmaqom ham bastakorlik an'anasining mahsuli sifatida yuzaga kelgan edi. Bu masalalar Forobiy zamonidan boshlab XVIII asrlargacha yozilgan musiqa risolalarida yoritilib kelindi.

XIV-XVI asrlar bastakorlik san'atining yuksalgan davri edi. Bu davrda ko'plab sozanda va xonandalar qatori ajoyib bastakorlar etishib chiqdi. Ular

maqom janrining rivojlanishida muhim ishlar olib bordilar.

Bastakor soʻzi tojikcha (“basta” - bogʻlangan, “kor” - ish, ishlovchi maʼnolarida) kuyni tashkil etadigan unsurlarni bir-biriga bogʻlovchi-demakdir; hozirda “kompozitor” (kompozitsiya etuvchi, kuy yaratuvchi) maʼnosida ishlatiladi¹³.

Bastakor oʻtmishda turli vazifalarni bajargan. Dastlab u yangi, original kuy va ashulalar yaratuvchidir. Ikkinchidan, bastakor tayyor kuylar mavzuida ularning ritmik va kuy variantlarini ham yaratgan.

Musika madaniyatimiz tarixida Navoiy va Jomiy zamonida ijod etgan juda koʻp bastakorlarning nomlari saqlanib qolgan. Ularning hayoti va ijodi haqida oʻsha davrlarga oid tazkiralarda, tarixiy, adabiy, memuar xarakteridagi asarlarda qimmatli maʼlumotlar keltiriladi. Shunday manbalar jumlasidan Avfiyning “Lubobul-albob”, Navoiyning “Majolisun-nafois”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratush-shuaro” va boshqa olimlarning tazkiralari, Boburning “Boburnoma”si, Vosifiyning “Badoeul-vaqoe”si, Darvish Ali Changiyning “Risolai musiqiy” asari kabi koʻplab tarixiy manbalarni koʻrsatib oʻtish mumkin.

Oʻsha zamonda Hirot, Samarqand, Xiva va boshqa markaziy shaharlarda koʻplab musika nazariyotchilari, isteʼdodli sozanda, xonanda hamda bastakorlar ijod etganlar. Ular Oʻrta Osiyo va Xuroson xalqlari musika madaniyatida, maqom turkumlarining taraqqiyotida alohida oʻrin tutadilar. Lekin bu davrda qoʻllangan kuy va ashulalarning turi va shakllari masalalarini yoritib beradigan, bu haqda maxsus yozilgan asarlar bizgacha etib kelmagan. Bu masalalarni tasavvur etishda musiqaga bevosita aloqasi boʻlmagan manbalar alohida ahamiyatga ega, xon saroylaridagi bazm, oʻyin-kulgilar, xalq shodiyonalari va sayillarida ijro etilgan musika asarlari va raqslar haqida gapiriladi.

XV asrda etishib chiqqan shoirlar, sanʼat ahllariga Navoiy va Jomiy xomiylik qilganlar hamda ularni tarbiyalaganlar. Navoiy oʻzining “Majolisun-

¹³ Tursunov R. Bastakorlar ijodi T., 2008 4-5 bet

nafois” asarida musiqaning nazariy ham amaliy jihatlaridan xabardor shoirlarni maqtaydi.

Ma’lumki, Navoiyning o’zi ham zo’r sozanda va bastakor edi. Shu sababli uning she’rlari ashulalarga oson bog’lanar edi. Zahiriddin Bobur, u ko’plab naqsh va peshravlar yaratganligini aytib o’tgan edi (Boburning o’zi ham bastakor bo’lib, u Rosti Panjgoh maqom yo’lida saj’ deb nomlangan asar bastalagan edi.

Professor Fitratning aytishicha, Buxoro sozandolari “Qari Navo” kuyini Navoiyniki deb hisoblaydilar¹⁴. Abdurahmon Jomiy ham talaygina kuy va ashulalar yaratgan. Ulardan biri “Naqshi Mullo” deb atalganligi haqida aytib o’tilgan edi.

Shunday qilib, XIV-XV asrlarda ijod tggan bastakorlar maqomlar taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar va ularning takomillashtirish va boyitilishida muxim rol o’ynadilar.

Bastakorlik san’ati so’nggi davrlarda yashab ijod etgan ko’pgina mualliflarning asarlarida xam ma’lum darajada yoritib berilgan.

XVI-XVII acp musiqa san’atining yana bir yirik namoyandasi Darvish Ali Changiy edi. Uning ham hayoti va ijodi haqida to’liq ma’lumotlar saqlanmagan. Lekin, Darvish Alining risolasi uni yirik musiqa olimi, sozanda va bastakor bo’lganidan dalolat beradi. U “Risolai musiqiy” asarida o’zi haqida qisqacha ma’lumot bsrib, yoshligidan musiqaga havas qo’ygani, hofizlik kilgani, chang cholg’usida chalgani va keyinchalik saroyga taklif etilgani haqida gapiradi.

Darvish Alining risolasi ham o’n ikki bobdan iborat bo’lib, VII-XII boblari o’tmishda va Darvish Ali zamonida yashab ijod etgan musiqachilar, bastakorlar, shoirlar va olimlar biografiyasiga taalluqlidir. Bu erda musiqa xakida juda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan faktik epizodlar keltiriladi¹⁵.

¹⁴ Fitrat A. O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi T., 1993. 41-bet

¹⁵ Yunusov R. O’zbek musiqa ijodi 2-qism T., 2000 14-bet

Bu lavhalar, Mavlon Kavkabi va boshqa noma'lum mualliflarning asarlarida keltirilgan O'rta Osiyodagi bastakorlik va musiqa turi hamda shakllari haqida qimmatli material beradi. Risolada kuy-ashulalar shakli va turi har qancha aniq ta'riflangan bo'lsa xam, XV-XVII asrlarda mavjud asarlarning nota yozuvlardagi namunasi bo'lmagandan keyin, aniq tasavvur etish mushkul narsa. Shunga qaramay, bizgacha etib kelgan maqomlar namunasi Shashmaqom vositasi bilan o'sha davrlardagi risolalarda aks ettirilgan kuylar qiyofasini taxminiy tarzda tasavvur etish mumkin. Chunki XV-XVII asrlarda mavjud bastakorlik an'anasi maqom janrining takomillashishida va Shashmaqomning shakllanish jarayonida asos yaratib bergan va bu sohada hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

XVI-XVII asrlarda ijod etgan buxorolik musiqachi olimlar Mavlon Kavkabi va Darvish Alining musiqa risolalarida kuy-ashula turlari va shakllari masalalariga maxsus boblar ajratilgan bo'lib, bu musiqa namunalarini, mavhumroq bo'lsa-da, tasavvur etishga yordam beradi. Shubhasizki, bunday kuy shakllarini tashkil etuvchi asosiy qismlar hozirgi maqom yo'llarida ham mavjud. Lekin kuy qismlarining ifodasi bo'lgan ko'pchilik musiqa atamalarining iste'moldan chiqib ketganligi bu masalani anik tushunishda asosiy to'siqlardandir.

Kavkabiyning ko'rsatishicha, alhon (kuy, ashula) uch xil bo'ladi:

Alhoni jirmiy (to'liq kuy), ya'ni musiqa tovushi (nag'ma), doyra usuli (ritm) va she'r matni ko'shilgan musiqa asari; bu vokal musiqadir. **Alhoni basitiy** (oddiy kuy), ya'ni cholg'u kuylar yoki she'rni o'lchovga solib o'qish.

Alhoni xattiy, (cheklangan kuy), ya'ni musiqa asaridagi tovushlar, ritm va she'rning alohida ko'rinishi. Musiqa asarlarining bu turlari haqida manbalarda mufassal ma'lumot yo'q.

Hozirgi kunda bu masalalarni aniq tasavvur etish qiyin. Lekin o'tmishda musiqa nazariyasi mualliflari lad uyushmalarini, badiiy she'r o'qishni, doyra usulini, hatto Qur'onni kiroat bilan o'qishni ham "alxon" tushunchasiga

kirita bsrqanlar. Bu xol esa alxonning yuqoridagi uch xmlini ta'riflashda ham o'z aksini topgan.

Kavkabiyy va Darvish Ali o'z risolalarida kuylarning ishlanish uslublari va shakllari haqida ham mulohaza yuritganlar. Bunda kor, qavl, amal, peshrav, savt, naqsh, rixta, saj', zarbayn kabi atamalar kuy yoki ashulalarning qismlarini, ba'zilar esa kuyning yaratilish uslublarini ifodalab beradi. Kuy kichik bir o'zgarish kiritilish bilan boshqa shaklga kirib, uning nomlanishi ham o'zgaradi. Shunday atamalardan biri kor deb ataladi.

Kor (forsa - ish, yaratish) mualliflar ta'rificha, arab tilidagi she'rlar bilan hafif o'lchovli doyra usulida ijro tlgiladigan ashula yo'lidir. Ashula boshida mustahal (cholg'u qism, vokal musiqaning cholg'u muqaddimasi) muqaddima kilinadi. Korning misnxona va bozgo'yi ham bo'ladi.

Musiqaga bag'ishlangan kitoblarda ko'rsatilishcha, ashula baytlaridan (she'r o'qilishdan) avval chalinadigan kuylar (motiv) mustahalldir. Ana shunday motiv baytlar o'qilgandan so'ng voqs bo'lsa, uni naqarot deyiladi. Agar ikkm bayt ashula shunday tartibda klsa, du sarxona (ikki sarxona, cap - bosh, boshlanishi; xona-kuy jumlas; sarxona-ashula boshlanishidagi kuy jumalari) nomi bilan ataladi. Kavkabiyy va Darvish Alining ko'rsatishicha, ikki baytdan tuziladigan kuy shakli miyonxona (miyonxona ashulaning o'rtasidagi kuy jumalari) deb ataladi. Miyonxonaning kuy jumalari baytlar yoki naqarot bilan ijro etilishi mumkin. Ammo kor shaklida misnixonadagi baytlar o'rniga naqarot ishlatiladi. Amal shaklining bozgo'yida esa aksincha, naqarot o'rniga arabcha baytlar yoki ruboiy bog'lanadi.

Qavl kor shaklining saqil doyra usulidagi ritmik variatsiyasidir. Ulardagi farq shuki, kor shaklida bo'lgan miyonxona qavlda ishlatilmaydi va ularning doyra usuli turlicha bo'ladi.

Amal (arabcha - ijodiy asar) ashula shaklida ham baytlardan oldin "mustahall" bo'ladi. Amal shaklida miyonxona bilan bozgo'y qismlari bo'lishi shart. Agar shunday kuy bo'laklari bo'lmasa, uni Savtul-amal (Amalning Savti) deyiladi. Amalning fazilati shuki, unga har qanday usulni (ya'ni doyra

usulini) bog‘lash mumkin. Lekin usul bir xil bo‘lishi shart. Agar ikki turli usul bog‘lansa “Kor ba usul” (“usuldagi kor”) deyiladi. Amalning bozgo‘yiga bog‘langan usul - Usuli gardon, deb ataladi.

Peshrav (yuqoriga harakat etuvchi ohang) amal qoidasi asosida ishlangan kuy shakli bo‘lib, baytsiz (so‘zsiz) ijro etiladi. (Peshravni cholg‘u yo‘llaridan, dsb o‘ylash mumkin. Lskin bu srdagi fikrlar buning aksini tasdiqlaydi). Peshravda uch sarxona mavjud bo‘lib, birinchi sarxona kuyning past qismida kslsa, miyonxona uning balandi (avji)da bo‘ladi. Lekin bunday kuy o‘z husni (rangi)ni yo‘hotadi. Psshravdagi birinchi sarxona uch qismdan iborat bo‘lib, ular tarkib, oviza va lozima nomlari bilan ataladi.

Oviza (vosita) bir tarkib (sarxonadan oldin ksladigan motiv)ni boshqa kuy jumllariga bog‘laydigan vositadir. Lozima esa sarxona, miyonxona yoki bozgo‘y bilan birga ksladigan motivdir; u hsch qachon yakka holda ishlatilmaydi. Psshrav maqom, ovoz yoki sho‘‘balar nomi bilan qo‘shib ataladi. Masalan, Peshravi (maqomi) Kuchak, Peshravi (sho‘‘bai) Hisor, Peshravi Shahnoz, Peshravi Bastai Nigor kabi.

Darvish Alining fikricha, peshrav Amiri Ko‘ragoniy zamonida yuzaga ksladi. Amir Temur shoir va musiqachilarni to‘plab, ko‘pgina baytlarga tasniflar bog‘lashni buyurgan edi. Natijada musanniflar (bastakorlar) bir necha tarkiblar bog‘lab, ularga ikki sarxona, miyonxona va bozgo‘y ishladilar. Dastlab o‘sha zamonlarda Sayful-Musirr (?) Iroq maqomiga peshrav bog‘lagan edi. Bu peshravda to‘rt sarxona bo‘lib, Du-yak (ikki-bir) usulida edi. So‘ngra Ustod Muxammad Latifi Qutbi Noyi Husayniy maqomiga peshrav bog‘ladi. Bu peshrav far’ usulida bo‘lib “Peshravi mashhur”, deb nomlangan edi.

Savt (tovush, ohang) uch bayt bog‘langan ashula yo‘li bo‘lib, unda mustahall, miyonxona va bozgo‘y bo‘lmaydi. Lekin “zil”ning ishlatilishi shart, Zil bayt va naqarotlardan keyin keladigan ashulaning cholg‘u jumlasidir. Demak. zil bo‘lmasa. savt bo‘la olmaydi. Lekin naqaroti bo‘lmasa ham savt bo‘laveradi¹⁶.

¹⁶ Rajabov I. Maqomlar T., 2006 38-bet

Mavlono Binoiy (XV-XVI asr) Panjgoh sho‘‘basiga muxammas usulida ishlagan savtida shunday qilgan edi. Darvish Alining aytishicha, savt naqshga o‘xshab benaqarot ishlangan bo‘lib, uni naqsh yoki rang, deb nomlash lozim edi. Savt qadim zamonlarda amalning o‘zi bo‘lgan edi. Ustod Shodiy (XV asr) Savtni bir chil qo‘shib, Amaldan ajratgan, shu bilan birga Savt naqarotining o‘rniga bir chil tarkib qo‘shgan edi.

Ashulaning naqsh turmda ruboiy (ashulanng to‘rt jumlasiga) baytlar joylashtiriladi, lekin unga katta Savtlar va usullar bog‘lanmaydi. Agar bog‘lansa, u Naqsh deyilmaydi. Masalan. Muxammas shakliga bog‘lansa, u Sunbuliy deb ataladi.

Rixta (aralashgan, hindlarda ham Rixta nomi bilan mashxur) shakli shuki, bu ashulada baytlar hindcha (urdu tilida) bo‘ladi. Rixta ustida bastakor va mashxur musiqa olimi Xo‘ja Abdulqodir birinchi bo‘lib ish olib borgan. Rixta she‘rining mazmunida Muxammad payg‘ambar (s.a.v.) madhi assos bo‘lib. bozgo‘yida o‘n ikki imom tavsifi berilgan edi.

Saj’ (kofiyalangan proza) she‘rdagi tavil baxriga o‘xshab, tarkiblar Amal shaklidagi kabi bir-biri bilan biriktiriladi. Bunda ikki sarxona, miyonxona va bozgo‘yi bo‘ladi. She‘rning mazmunida ko‘pincha payg‘ambar, chaxoryorlar va imomlar madx etiladi. U usuli Hazaj bo‘lib, Zaxiriddin Bobur Rosti Panjgoh pardasiga (ya‘ni maqomiga) Saj’ bog‘lagan edi.

Zarbayn (ikki xil zarbli) shaklida bir amalga ikki turli usul bog‘lanadi. Bunda xar bir sarxona ikki usulda, agar bayt bilan o‘qiladigan motivlar bir usulda bo‘lsa, naqarot boshqa usulda bo‘ladi. Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy Zarbaynning baytlari (bayt bilan ashula qilib ijro etiladigan qismi)ni Hafif, naqarotinn Du-yak usulida va bozgo‘yini esa boshqa o‘n uch xil uslubga moslab, o‘n uch Kuchak de nomlagan edi. Qisqasi, agar Sarxonada Amal shakli voqe bo‘lsa zarbayn deb ataladi.

Yuqorida ko‘rsatilgan kuy va ashulalarni yaratish usullari haqidagi fikrlar Mavlono Kavkabiy va Darvish Ali risolalarida mavjud bo‘lib, Kavkabiyda boshqacharoq ko‘rinishda iyuhlangan xamda kuy va ashulalarning

boshqa shakllari ham berilgan. Masalan, Miatayn (ikki yuz), Sarband, Amali mustaxall, Qavli mustahall, Navbat, Kulliyot va boshqalar. Savt, Peshrav, Naqsh, Amal, Qavl va boshqa shakllar esa o'ziga xos usulda ta'riflangan.

Xulosa qilib aytganda, maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lgan musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan.

2.3 Pedagogik texnologiyalarni qo'llab Sharq allomalar risolalari musiqa tushunchasini yoritish usullari

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining turli interfaol metodlar ilg'or pedagogik texnologiyalarida ayniqsa kompyuter texnologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq vaqti-vaqti bilan ijrodagi kuy va qo'shiq namunalarini yozuv tasmasi yoki audio, video yozuvlar orqali tinglash tavsiya etiladi.

“Ming marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi” degan naqlni hamma biladi. Og'zaki ravishda materiallarni o'zlashtirish ko'rsatkichi 10%, bo'lgan sharoitda dars o'tish samarasiz bo'ladi. Mashg'ulotlarda o'quv materialni ko'rgazmali shaklda taqdim etish lozim.


Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

Ta'limning texnik vositalari (TTV) - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli etkazib berishga yordam beradi; talabalarga o'quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta'lim vositalari (YoTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O'quv - uslubiy materiallar (O'UM) - o'quv materiallar, o'zlashtirilgan


o'quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.



Ta'lim vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

- ✎ Maqsadni belgilash;
- ✎ O'quv axborot mazmuni;
- ✎ Ta'lim vositalari;
- ✎ Etakchi bilim manbai;
- ✎ O'quv materialining yangiligi va murakkabligi.

Insert jadvali



“INSERT” jadvali

Mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning jarayonli tuzilmasi

Insert jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida o‘zlari to‘ldiradilar.

O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga “kiritadilar” matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

“V” - men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;


“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	+	–	?

Klaster



Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.
Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining
o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat
bo‘lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida
mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik
doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shiladi. Ularni
“asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida
birlashtiriladi. Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik
yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan
vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom
etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar.

KLASTER


(Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha
tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy
omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog'oz varag'ining o'rtasiga asosiy so'z yoki 1-2 so'zdan iborat bo'lgan mavzu nomi yoziladi

Birikma bo'yicha asosiy so'z bilan uning yonida mavzu bilan bog'liq so'z va takliflar kichik doirachalar "yo'ldoshlar" yozib qo'shiladi. Ularni "asosiy" so'z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo'ldoshlarda" "kichik yo'ldoshlar" bo'lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g'oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashinadilar¹⁷.




¹⁷ Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005

Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

1. Sharq allomalari va ular yozgan musiqa xaqidagi risolalari haqida biladigan qisqa ma'lumotlar bir so'z bilan tez-tez yozilishi kerak.
Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Sharq allomalari va ular yozgan musiqa xaqidagi risolalari mavzusini yoritishdagi tezkor yozish natijasida xatolarga qaralmaydi. Xatni to'xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Sharq allomalari va ular yozgan musiqa xaqidagi risolalari xaqida ma'lumot berganda, o'quvchilar jadval, rasm va turli belgilar asosida ham yozishi mumkin. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

B/BX/B JADVALI



B/BX/B JADVALI- Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida /kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.

Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil/kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

B/BX/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Sharq allomalari va ularning nomlarini bilaman	Sharq allomalaridan Abu Nasr Farobiy risolasidagi cholgʻu asboblari haqidagi maʼlumotni bilishni xoxlayman	Sharq allomalari va ularning risolalari nomlarini bilib oldim

Musiqi taʼlimida qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalarning samaradorligini oʻlchash mezonlari soha boʻyicha taʼlimni davlat standartlari va oʻquv dasturlarini mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

Musiqi madaniyati mashgʻulotlari davlat taʼlim standartlari asosida yangi taʼlim mazmuni oʻquvchilarining oʻzlashtirilgan bilim, koʻnikma va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur hosil qilish, ijodkorlik, mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirish talablaridan kelib chiqadi. Ayni vaqtda bu borada muayyan samaradorlikka erishishning asosiy yoʻli sifatida musiqi darslarining tashkil etilishiga nisbatan texnologik yondoshuv eʼtirof etilmoqda.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi musiqiy taʼlimni maʼlum maqsad asosida, shuningdek, maqbul shakl, usul va vositalar yordamida tashkil etilishi bilan taʼminlanadi. Jumladan: texnik vositalar, kompyuter va boshqa musiqiy cholgʻular uslublari, koʻrgazmali jihozlar, amaliy mashgʻulotlar, pedagogik va psixologik vositalar, ilgʻor oʻqituvchilarning ilgʻor tajribalari, darslarning noanʼanaviy shakllari, baholashning yangi tizimi kabilar pedagogik texnologiyalar samaradorligini aniqlashning muxim mezonlari boʻlib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash mezonlari dars jarayonida oʻquvchilar tomonidan quyidagi oʻquv faoliyatlarini nazariy hamda amaliy tarzda bajarish borasidagi bilim, koʻnikma va malakalarning oʻzlashtirilish darajasi bilan belgilanadi:

Musiqiy ohangni tinglay olish va kuylash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Shuningdek, cholg'uchilik, musiqaviy harakatlar, ijodkorlik faoliyatlarini keng ko'lamda tashkil etish, musiqiy tavsiflarini ifodalash imkoniyatini yaratadi. O'zbek xalq musiqasi, o'zbek hamda jaxon musiqiy asarlaridan namunalar, shashmaqom sho'balari, mahalliy musiqa uslublaridan namunalar tinglash orqali o'quvchilarda musiqiy savodxonlik shakllanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'zining ovoz ijrosini boshqarish, ustozlarining ijrosini tinglash, ularni kuzatish hamda birgalikda kuylashga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari, jahon va qardosh xalqlarining mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlari, maqom aytish yo'llaridan namunalar ijro etish orqali ularda ijrochilik maxorati shakllana boradi.

Dars, darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida qanday faoliyat (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) tashkil etilmasin, muayyan mavzu o'rganiladi va o'quvchilarda ularning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni, janri, shakli, tuzilishi, ijro uslubi borasida yangi tushunchalar hosil bo'ladi.

Bundan tashkari alteratsiya belgilari, kalitlar, major va minor tonalliklari ularning tabiiy, garmonik, melodik turlari xaqida o'quvchilar har darsda o'rganib, mustahkamlab borishi kerak.

Musiqa tinglash jarayonida tinglanayotgan kuyni qanday shaklda yozilganligi, yakkanavoz va jo'rovoqlikni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay olish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirishni ta'minlaydi. O'zbek qardosh va jaxon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash asosida o'quvchilarda shakllangan estetik did va madaniyat takomillashib boradi.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati mashg'uloti davomida xalq ijodi nomunalari, bastakor va kompozitorlar asarlaridan kuy va qo'shiqlar tinglab ijrochiligining shakllanganlik darajasi va raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqiy asarlar, bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy,

xalq kuy qo'shiqlari, maqom, doston, zamonaviy musiqiy asarlar, mashhur sozanda va xonandalarning ijodi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak.

Musiqaning zamonaviyligi, kuy, ritm, usul, sur'at, o'lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish, major va minor ladlarini farqlay bilish; oddiy musiqa shakllari bir, ikki va uch qismli musiqiy asarlar; kupletli, rondo, sonata, syutalar haqida tushunchalarga ega bo'lish; musiqiy janrlar ashula, raqs, vals, marsh, opera, balet, musiqiy drama, cholg'u musiqasi, kantata, kvartet, simfoniya kabi janrlarni bir biridan farqlay olishlari zarur bo'ladi.

Bunda asosiy musiqiy faoliyat turlari, Sharq allomalari Farobiy, Ibn Sino, A. Navoiy kabi allomalar bilan tanishish, ijrochilar ansambli, orkestr, xalq va malakali sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish, ifodaviy vosita va usullarni to'g'ri anglash, amaliy musiqiy-ijodiy faoliyatda ularni qo'llash borasidagi bilim va malakalar bilan baholanadi.

O'qituvchi musiqa madaniyati mashg'ulotlarida mavzuni qaysi interfaol metod yoki ilg'or pedagogik texnologiyalarini qo'llashini oldindan belgilab olishi lozim va shu texnologiyani qo'llashda kerakli bo'lgan ko'gazmali qurollarni tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab kelishi zarur. Bir mashg'ulotni o'zida ber necha metod qo'llash mumkin. Masalan, o'quvchilar mashg'ulotga kirishdan oldin ularni guruhlariga ajratib ishlash maqsadida "Universal" pedagogik texnologiyadan foydalanish uchun "6 x 6 x 6" usulini qo'llab guruhlariga ajratiladi.

Guruhlar taqsimlangandan keyin, har bir guruhga nom beriladi. Bu nomlar yoki belgilar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan ko'rsatkich doskalar yoki qog'ozga yozilgan bo'ladi. Bunday belgilar guruhlariga o'z faoliyatini nazorat qilishda yordam beradi. Birinchi guruh skripka kaliti, ikkinchi guruh bas kaliti, uchinchi guruh alt va to'rtinchi guruh tenor kaliti bilan nomlanishi mumkin.

Shulardan birini tanlagan holda oldindan matni o'qituvchi tomonidan belgilanadi va guruhlariga ajratilgan o'quvchilarni diqqatini tarqatilgan material yozishga qaratiladi.

Sharq allomalari risolalari mavzusi bo'yicha eng mukammal egallagan nazariy bilimlarni tekshirish uchun belgilangan mavzu bo'yicha tarqatilgan matnni

to'liq o'rganish uchun o'quvchilar berilgan nomunaning qisqacha variantda yozishlari kerak bo'ladi.

Birinchi guruh skripka kaliti:



Vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning (873—950) bu xususdagi fikri ham e'tiborlidir: “Musika ilmi shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan odamlar xulqini tartibga keltiradi, mukammallikka etmagan xulqini mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar xulqining muvozanatini saqlab turadi. Bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir. Chunki tana kasal bo'lsa, ruh so'ladi. Tana to'siqqa uchrasa, ruh ham to'siqqa uchraydi. Shuning uchun ovozlarning ta'siri bilan ruhni sog'aytirish yordamida tana sog'aytiriladi...” Abu Nasr Forobiy o'zining musiqaga bag'ishlagan risolalarida Sharq musika nazariyasini asoslab berdi. Uning musika asarlari “Kitabul musiqiy al-kabir” (“Musiqaga doir katta kitob”), “Kalam fil-musika” (“Musika haqida so'z”), “Kitabul musika” (“Musika kitobi”), “Kitabun fi-ihsa'il-ulum” (“Fanlar tasnifiga doir kitob”)ning musiqaga bag'ishlangan qismi, “Kitabun fi-ihsa'il-iqo'” (“Musika ritmlari - iqo' tasnifi haqida kitob”) va boshqalardir.

Ikkinchi guruh bas kaliti:



Alloma Abu Ali ibn Sinonning (980— 1037) musiqaning katta tarbiyaviy ahamiyati haqidagi quyidagi so'zlari ham chuqur ma'noga ega: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi esa, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musika va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi”.

Ibn Sinonning “Kitabush -shifa” (“Shifo kitobi”), “Donish noma” (“Bilim kitobi”), “Kitabun najat” (“Najot kitobi”) kabi asarlarining musiqaga doir qismi va “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” (“Musiqiy ilmi haqida risola”) kabi

risolalari Abu Nasr Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi.

Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri - “Kitabush - shifa” falsafiy xarakterda bo‘lib, unda muallifning tabiiy-ilmiy qarashlari aks ettiriladi. Muallif 13 qismda zamonasidagi tabiiy fanlarni sharhlab beradi. Shu jumladan bu erda musiqa nazariyasi ham yoritiladi. Asar 4 ta katta bo‘limdan iborat:

1. Mantiq
2. Fizika (Tabiiyot)
3. Aniq fanlar
4. Metafizika

Uchinchi guruh alt kaliti:

Sharq mutafakkirlari musiqa pok va go‘zal muhabbat tuyg‘ularini ifodalovchi ajovib xususiyatlari haqida ham hikmatli so‘zlarni bizga ma’naviy meros qoldirganlar.



Bu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning (1441—1501) so‘zlari bag‘oyat ta’sirlidir:

”Otashin yuzluk mug‘anniyki, xilqidin muloyim surud chiqorg‘ay.

Hol ahlining kuygan bag‘ridin dud chiqorg‘ay”¹⁸.

Ya’ni, ovozi chiroyli xonandaning yoqimli ashulasi muhabbat ahlining qalbini yondiradi, kuydiradi, degan ma’noni anglatadi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalariga bag‘ishlab, maxsus asar yaratmagan. Uning “Mahbubul qulub” asaridagi sozanda va xonandalarga bag‘ishlangan qism bundan mustasnodir. Ulug‘ san’atkorning musiqa to‘g‘risidagi fikrlari va musiqaviy-estetik qarashlarini aks egtiruvchi faktlar uning adabiy, tarixiy va ilmiy xarakterdagi asarlarida sochilgan holdadir.

Navoiyning asarlarida o‘z ifodasini topgan eng muhim masalalardan biri - musiqa cholg‘ulari yoki sozlar masalasidir.

¹⁸ Alisher Navoiy “Mahbub – ul qulub”

Musiqqa cholgʻulari - musiqqa madaniyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonini aniqlashda hal etuvchi omillardan xisoblanadi.

Navoiyning dostonlarida, devonlarida. “Maxbubul-qulub”, “Majolisun-nafois” kabi asarlarida juda koʻp sozlar nomi tilga olinadi. Ular orasida ud, nay, gʻijjak, tanbur, chang, rubob, qoʻbiz, qonun, rud, chagʻona, daf, yaʼni doyra, nogʻora cholgʻularining nomi juda koʻp uchraydi. Bu sozlarning baʼzilari bizning kungacha etib kelmagan, bir xillari Urta Osiyoda isteʼmoldan chiqib ketgan; uchinchi bir xillarining shakli oʻzgarib ketib, nomigina saqlanib qolgan.

Toʻrtinchi guruh tenor kaliti:

Mavlono Jomiy. Tojik xalqining buyuk klassik shoiri va atoqli olimi Mavlono Nuriddin Abdurahmon bin Ahmad al-Jomiy (1414 - 1492) Nishopur yaqinidagi Jom qishlogʻida dunyoga kelib, Hirot shahrida taʼlim oladi va umrining oxirigacha shu erda yashaydi.

Uning koʻp qirrali ijodiy faoliyati adabiyot, fan va sanʼat sohalarida barakali boʻldi. Abdurahmon Jomiy juda koʻp ilmiy va adabiy xarakterdagi kitob va risolalar muallifidir. Uning ilmiy asarlari orasida musiqaga bagʻishlanib yozilgan “Risolai musiqiy” (“Musiqqa risolasi”)¹⁹ asari musiqqa nazariyasi masalalariga bagʻishlangan boʻlib, ayniqsa maqomlarni oʻrganish borasida diqqatga sazovordir.

Abdurahmon Jomiy zoʻr sozanda va bastakor ham boʻlgan. Professor Fitratning zikr etilgan asarida Jomiy oʻz zamonasida mashhur boʻlgan “Naqshi Mullo” nomli musiqqa asari yaratganligi haqida eslatib oʻtiladi. Bu asar ashula yoʻllaridan biri boʻlib, Jomiyning bastakor boʻlganligini tasdiqlaydi. Jomiy musiqqa sohasining amaliy va nazariy tomonlarini chuqur egallagan sanʼatkor edi.

Abdurahmon Jomiyning “Risolai musiqiy” asari Navoiyning iltimosi bilan buyuk olimning keksayib qolgan vaqtida yozilgan edi. Navoiy oʻzining “Xamsatul-mutaxayyirin” asarida bu risolaning yuzaga kelishi haqida eslatib

¹⁹ Yunusov R. Oʻzbek musiqqa ijodi 1-qism T., 1999 7-bet

o'tadi²⁰.

Jomiyning risolasi ixcham (hammasi bo'lib 8 varaq), ommabop va o'zining chuqur mazmundorligi bilan xarakterlidir.

Abduraxmon Jomiyning musiqiy risolasi XV asrlarda joriy bo'lgan maqomlarni o'rganishda, zamonasidagi musiqaning nazariy va amaliy masalalarini tushunishda zo'r manbalardandir, binobarin Navoiy va Jomiy davridagi musiqa madaniyatning taraqqiy etishida muhim o'rin tutgan edi. Jomiyning risolasi o'sha zamonda yaratilgan va bizgacha etib kelmagan boshqa musiqa risolalari mazmunini ko'rsatib beruvchi asar namunasi bo'lib ham xizmat etadi.

Mavzu bo'yicha tarqatilgan ma'ruza matni o'quvchilar tomonidan yozib olishdan oldin har guruhning o'z lideri aniqlanadi. Bu o'quvchi har guruhda guruh ishtirokchilari tomonidan mustaqil belgilanadi. Asosiy ishni ya'ni mavzu asosidagi ma'ruza matni vazifasini lider bajaradi, qolgan o'quvchilar esa unga yordam berishadi. Bu usul o'quvchilarni alohida emas guruh bo'lib ishlash, o'z aro bir birini fikrini hurmat qilish va aniq, to'g'ri javobni aniqlashda yordam beradi.

O'quvchilarning har biri guruhi vazifani bajarish jarayonida kim o'zarga harakat qiladilar, albatda o'qituvchi bu jarayonni nazorat qiladi, lekin o'z fikrini bildirmaydi, ularning ishlash jarayoniga aralashmaydi. O'quvchilarning faoliyatini nazorat qilib, birinchi bo'lib yozgan guruh o'quvchilariga rag'bat kartochkalarini beradi.

Rag'bat kartochkalari son bilan emas musiqiy mashg'ulot bo'lganligi uchun nota cho'zimlari bilan belgilash mumkin, ya'ni "a'lo" baho bilan rag'batlantirilgan guruh "butunlik" nota, "yaxshi" baho olgan guruh "yarimtalik" nota va "qoniqorli" vazifa bajarib baholangan guruh "choraktalik" nota bilan tagdirlanadi. O'quvchilarni rag'batlantirish juda zarur, chunki ular qilgan har biri yutuq o'qituvchi tomomnidan rag'batlantirilib turishi ularni kayfiyatini ko'taradi, hamda yanada tezroq ishlashga faol bo'lishga undaydi.

Dars yakunida kartochkalar guruhlar tomonidan xisoblab chiqiladi va g'olib

²⁰ Solomonova T. O'zbek musiqasi tarixi T., 1981 16- bet

guruh aniqlanadi, g'olibni aniqlashda o'qituvchi qatnashmaydi u faqat nazorat qiladi g'olib guruhni esa o'quvchilarni o'zi aniqlashlari zarur.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarining samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining faoliyati katta ahamiyatga egadir. Mashg'ulotlarda o'quvchilar faqat jim o'tirib eshitishlari yoki mavzuni tinglab yozishlari unchalik muhim emas. Mushg'ulotlarni olib borish jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida jonli muloqat jarayoni bo'lishi mumkin, bunda o'quvchilarning bahslashuvi bir-birining fikrlarini tinglash va ular asosida to'g'ri javobni topishligi nazarda tutiladi.

IKKINCHI BOB YUZASIDAN XULOSA

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrlan'analalarimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi.

Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan Sharq allomalari risolalari va ularda bitilgan ma'lumotlar bugunki kunda ularni o'rganish, tahlil qilish juda kerakli masalalardan biri bo'lib qoldi. IX - XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar, allomalar risolalari va tarixiy-adabiy xarakterdagi manbalarning ko'plarida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Fanning boshqa sohalarida ham o'lmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari musiqa nazariyasi ("Ilmi musiqiy") bo'yicha xam ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo'llanilgan musika nazariyasining yuzaga kelishida hal etuvchi axamiyat kasb etadi. X- XV asrlarda yuzaga kelgan musiqiy nazariy risolalarda sharh etilgan tub masalalardan biri maqomlar masalasi bo'lib, zamonasida joriy bo'lgan jonli musiqa asarlarining lad-parda asosini o'rganishda bizga yordam beradi.

O'rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar barakali samaralar berdi. XIV asrlarda O'rta Osiyoda markazlashgan Temuriylar davlati barpo etildi. Bu davrda adabiyot va san'atning ravnaqi uchun sharoitlar yaratilgan edi.

XIV-XV asrlarda O'rta Osiyo madaniyati, o'rta asr adabiyoti va musiqasining eng yuksalgan davri ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy va tojik klassik shoiri va atoqli olimi Abdurahmon Jomiy yashagan davr edi.

Navoiy va Jomiy zamonasidagi musiqa madaniyati tarixini o'rganish borasida, musiqa bilan bilvosita bog'liq bo'lgan tarixiy, adabiy xarakterdagi asarlar ham asosiy manbalar sifatida juda katta ahamiyatga ega. Bu asarlarda sozanda, xonanda va bastakorlar nomi, o'sha vaqtlarda iste'molda bo'lgan sozlar, xon saroylaridagi bazmlar, ommaviy sayil va bayramlarda ijro etilgan ashula va raqslar to'g'risida gapiriladi.

Abdurahmon Jomiy juda ko'p ilmiy va adabiy xarakterdagi kitob va risolalar muallifidir. Uning ilmiy asarlari orasida musiqaga bag'ishlanib yozilgan "Risolai musiqiy" ("Musika risolasi") asari musiqa nazariyasi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ayniqsa maqomlarni o'rganish borasida diqqatga sazovordir.

Alisher Navoiy musiqa nazariyasi va amaliyoti masalalariga bag'ishlab, maxsus asar yaratmagan. Uning "Mahbubul qulub" asaridagi sozanda va xonandalarga bag'ishlangan qism bundan mustasnodir. Ulug' san'atkorning musiqa to'g'risidagi fikrlari va musiqaviy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi faktlar uning adabiy, tarixiy va ilmiy xarakterdagi asarlarida sochilgan holdadir.

Sharq xalqlarining musiqa merosida maqomlar juda katta o'rin tutadi, so'nggi davrlarda ham ko'pgina musiqashunos olimlar maqomlar xaqida o'zlarining fikrlarini bildirib kelganlar. Sharq allomalari yaratgan risolalari bilan umumta'lim maktabi 7-sinf o'quvchilari 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

UMUMIY XULOSA

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof qilingan.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an'analарimizga bo'lgan e'tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo'nalish kasb etdi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo'lgan e'tibor davlat miqyosiga ko'tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ota-bobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi.

Bu borada Sharq allomalarining risolalari, o'tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan Sharq allomalari risolalari va ularda bitilgan ma'lumotlar bugunki kunda ularni o'rganish, tahlil qilish juda kerakli masalalardan biri bo'lib qoldi. IX - XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tarixiy-nazariy asarlar, allomalar risolalari va tarixiy-adabiy xarakterdagi manbalarning ko'plarida maqomlar masalasiga alohida ahamiyat berilgan.

Fanning boshqa sohalarida ham o'lmas ilmiy asarlar yaratgan buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Xorazmiy va ularning davomchilari musiqa nazariyasi ("Ilmi musiqiy") bo'yicha xam ilmiy asarlar yaratdilar hamda Sharq musiqa fani taraqqiyoti tarixida butun bir davr ochib berdilar. Bu olimlarning faoliyati Sharq xalqlarida qo'llanilgan musika nazariyasining yuzaga kelishida hal etuvchi axamiyat kasb etadi. X- XV asrlarda yuzaga kelgan musiqiy nazariy risolalarda sharh etilgan tub masalalardan biri maqomlar masalasi bo'lib, zamonasida joriy bo'lgan jonli musiqa asarlarining lad-parda asosini o'rganishda bizga yordam beradi.

Oʻrta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixida XIV-XV asrlar barakali samaralar berdi. XIV asrlarda Oʻrta Osiyoda markazlashgan Temuriylar davlati barpo etildi. Bu davrda adabiyot va sanʼatning ravnaqi uchun sharoitlar yaratilgan edi. Oʻrta Osiyo madaniyati, oʻrta asr adabiyoti va musiqasining eng yuksalgan davri ulugʻ oʻzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy klassik shoir va atoqli olim Abdurahmon Jomiy yashagan davr edi.

Navoiy va Jomiy zamonasidagi musiqa madaniyati tarixini oʻrganish borasida, musiqa bilan bilvosita bogʻliq boʻlgan tarixiy, adabiy xarakterdagi asarlar ham asosiy manbalar sifatida juda katta ahamiyatga ega. Bu asarlarda sozanda, xonanda va bastakorlar nomi, oʻsha vaqtlarda isteʼmolda boʻlgan sozlar, xon saroylaridagi bazmlar, ommaviy sayil va bayramlarda ijro etilgan ashula va raqslar toʻgʻrisida gapiriladi.

Alisher Navoiy “Mahbubul qulub” asaridagi sozanda va xonandalarga bagʻishlangan qismi bor. Ulugʻ sanʼatkorning musiqa toʻgʻrisidagi fikrlari va musiqaviy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi faktlar uning adabiy, tarixiy va ilmiy xarakterdagi asarlarida sochilgan holdadir. Abdurahmon Jomiy ilmiy asarlari orasida musiqaga bagʻishlanib yozilgan “Risolai musiqiy” (“Musiqqa risolasi”) asari musiqa nazariyasi masalalariga bagʻishlangan.

Sharq xalqlarining musiqa merosida maqomlar juda katta oʻrin tutadi. Shu sababli maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini koʻpdan beri oʻziga jalb etib, soʻnggi davrlarda ham koʻpgina musiqashunos olimlar maqomlar xaqida oʻzlarining fikrlarini bildirib kelganlar.

Sharq allomalari yaratgan risolalari bilan umumtaʼlim maktabi 7-sinf oʻquvchilari 3-chorakda tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega boʻlishi nazarda tutilgan. Umumtaʼlim maktablari musiqa madaniyati mashgʻulotlarini samaradorligini oshirish uchun oʻqituvchining turli interfaol metodlar ilgʻor pedagogik texnologiyalarida ayniqsa kompyuter texnologiyasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq vaqti-vaqti bilan ijrodagi kuy va qoʻshiq namunalarini yozuv tasmasi yoki audio, video yozuvlar orqali tinglash tavsiya etiladi. Musiqa taʼlimida qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalarning

samaradorligini o'lchash mezonlari soha bo'yicha ta'limni davlat standartlari va o'quv dasturlarini mazmunidan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

Bunda asosiy musiqiy faoliyat turlari mavzuga asoslanib, Sharq allomalari Farobiy, Ibn Sino, A. Navoiy kabi allomalar bilan tanishish, ijrochilar ansambli, orkestr, xalq va malakali sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish, ifodaviy vosita va usullarni to'g'ri anglash, amaliy musiqiy-ijodiy faoliyatda ularni qo'llash borasidagi bilim va malakalar bilan baholanadi.

Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, otabobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Buning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm-rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi

“Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi Islom Karimov, - eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi”²¹.

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma'naviy jabhalarning barcha yo'nalishlari o'zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo'ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma'naviy hayotdagi o'ziga xos o'rnini baholash, uning ta'sirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo'naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir.

²¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida T.1992
- 2.Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat T.1994
- 3.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008
- 4.DTS va o'quv dasturi 6 maxsus son.T.1999
- 5.Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami T. 2006
- 6.Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi T.2008
- 7.Akborov I.A. Kon Yu.O'zbek xalq musiqasi /Xorazm qo'shiqlari./ T.1960
- 8.Ibraximov O. Musiqa ijodiyoti masalalari T. 2002
- 9.Ibraximov O.Sadirov J. Musiqa 7-sinf uchun darslik T.2008
- 10.Karomatov F.K. O'zbek cholg'u musikasi T.1972
- 11.Mamadoliev F. Milliy musiqalarning ijrochiligi masalalari T.2001
- 12.Matyokubov O.Maqomat T.2004
- 13.Matyokubov O. Baltaev R. Aminov X. Xorazm tanbur chizig'i T. 2010
- 14.Matyokubov B. Doston navolari T.2008
- 15.Mannopov S.O'zbek xalq musiqasi madaniyati T.2004
- 16.Mamirov K. Uzlaksiz ta'lim tizimida musiqasi fanlarini o'qitish masalasi T.2009
- 17.Matyokubov O., Boltaev R., Aminov X. O'zbek notasi. I.2009
- 18.Nurmatov X.Ibraximov O. Musiqa 6-sinf uchun qo'llanma T.1997
- 19.Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir T.1963
- 20.Rajabov I. Maqomlar T.2006
- 21.Rajabov I. Maqom asoslari T.1992
22. Raximov B. Musiqa tarixi (ma'ruza matni) Ur. 2005
23. Salomonova T. Uzbek musiqasi tarixi T. 1981
24. Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005
25. Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011
26. Yunusov R. O'zbek xalq musiqasi ijodi I-qism T. 1999
- 27.Yunusov R. O'zbek xalq musiqasi ijodi 2-qism T.2000

- 28.Yunus Rajabiy O‘zbek xalq musiqasi V tom. T.1959
- 29.Yusupov M. (Akbarov I.A. tahriri ostida) Xorazm maqomlari T.1986
- 30.Yusupova M. Ibroximov O., Yafasova E.Sharq taronalari T.2007
- 31.Shashmaqom saboqlari (birinchi to‘plam) T. 2005

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www. ziyonet. uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www. edu. uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-intranet. ped](http://tdpu-intranet.ped)
- 6.belkanto.ru,

ILOVA



Abu Nasr Al-Forobiy



Abu Ali ibn Sino

Ал-Форобий жадвалі


1
Х Т Ї К Л М Н
С Н М Л К Ї Т
2
Х Ї Л Н С М К Т
3
Х К Н С Л Т Х Л
4
С К Х М С Ї Х Н С Т
5
Х Т Х Ї Х К Х Л Х М Х Н Х
6
С Н С М С Л С К С Ї С Т С
7
Х Т Ї Х К Л Х М Н Х
8
С Н М С Л К С Ї Т С
9
Х Т Ї К Х Л М Н Х
10
С Н М Л С К Ї Т С
11
Х Т Ї К Л Х
С Н М Л К С
12
Х Т Ї К Л М Н

**Ушшоқ мақомининг бошланиш парда (тоники)си
турлича бўлганида ул пардалайдан ҳосил
этиладиган товушқаторлар жадвали***

№	ТОВУШҚАТОРЛАР							
1.	А	Д	З	Х	Йа	Йд	Йҳ	А
2.	Б	Ҳ	Х	Т	Йб	Йҳ	Йв	Б
3.	Ж	В	Т	Й	Йж	Йв	Йг	Ж
4.	–	–	–	–	–	–	–	–
5.	Ҳ	Х	Йа	Йб	Йҳ	Йд	Б	Ҳ
6.	В	Т	Йб	Йж	Йв	Б	Ж	В
7.	–	–	–	–	–	–	–	–
8.	Х	Йа	Йд	Йҳ	Йд	Д	Ҳ	Х
9.	Т	Йб	Йҳ	Йв	Б	Ҳ	В	Т
10.	–	–	–	–	–	–	–	–
11.	–	–	–	–	–	–	–	–
12.	Йб	Йҳ	Йд	Б	Ҳ	Х	Т	Йб
13.	Йж	Йв	Б	Ж	В	Т	Й	Йж
14.	–	–	–	–	–	–	–	–
15.	Йҳ	Йд	Д	Ҳ	Х	Йа	Йб	Йҳ
16.	Йв	Б	Ҳ	В	Т	Йб	Йж	Йв
17.	–	–	–	–	–	–	–	–



Alisher Navoiy





Ато Гали-Абду-Гани.



В. А. Успенский.



Ато Жамали-Адини-Назиров.

ШЕСТЬ МУЗЫКАЛЬНЫХ ПОЭМ (маком)

Записанных В. А. УСПЕНОКИМ
в БУХАРЕ.

شەرقىي

۱ بو زروك	1-я БУЗРУК
۲ راست	2-я РОСТ
۳ ناوا	3-я НАВО
۴ دوگاه	4-я ДУ-ГО
۵ سيگاه	5-я СЕ-ГО
۶ عيراق	6-я ИРАК

ПОД РЕДАКЦИЕЙ

Фитрата и Н. Н. Миронова.

Изданье Народного Назарата Просвещения Бухареспублики.
1924.

